

Kamol Rahmonov

**JAHON TARIXI FANINI O'QITISHDA
INNOVASIYA VA INTERFAOL METODLARNI
TADBIQ ETISH
(1918-1939 yillarda Turkiya va Yaponiya mavzulari
misolida)**

METODIK QO'LLANMA

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
JAHON TARIXI KAFEDRASI**

Kamol Rahmonov

**JAHON TARIXI FANINI O'QITISHDA
INNOVASIYA VA INTERFAOL
METODLARNI TADBIQ ETISH
(1918-1939 yillarda Turkiya va Yaponiya
mavzulari misolida)**

METODIK QO'LLANMA

BUXORO -2022

Mazkur metodik qo'llanma Tarix ta'lim yo'nalishi 2-mutaxassislik 4-kurslarida o'tiladigan "Tarix fani bo'yicha innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etish" tanlov fanining, shuningdek, Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha), Tarix (islom tarixi va manbashunosligi) va Buxoro tarixi ta'lim yo'nalishlari 3-bosqich talabalariga o'tiladigan Jahon tarixi (eng yangi davr) va "Tarix o'qitish metodikasi" fanlarining o'quv mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

F.Raxmonov - Qarshi davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи dosenti, tarix fanlari nomzodi,

B.Rizayev - Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ushbu metodik qo'llanma Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи yig'ilishining 2022 yil 25 yanvardagi 19-son bayonnomasi, Tarix va madaniy meros fakulteti kengashining 2022 yil 26 yanvardagi 6-son bayonnomasi Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik kengashinig 2022 yil 26 fevraldagi 7-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etildi.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarda zalvorli, asrlarga tatiflik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar va buniyodkorlik ishlari tariximizning barcha bosqichlari sahifalarini atroflicha o‘rganish, to‘plangan tajribani umumlashtirish va istiqbolli rivojlanish dasturiga aylantirish borasida qilingan ishlar ham e’tiborga loyiq.

Bugungi shiddatli kechayotgan jamiyatdagi o‘zgarishlardan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalariga kirishuchun munosib nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish, o‘quvchilarning tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni davom ettirishlari uchun zarur va yetarli bo‘lgan, chuqurlashtirilgan nazariy va kasbiy tayyorgarligini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qarorlari qabul qilindi. **Jumladan**, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020 yil 24 yanvar)dan: “2019 yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta Ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta’limni rivojlanтирish uchun o‘tgan yili 19 ta yangi oliy o‘quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo‘shma ta’lim dasturi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016 yilga nisbatan 2 barobar ko‘p talaba o‘qishga qabul qilindi”, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”, “Maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur”, - kabi fikrlarni o‘qib olishimiz mumkin.

Mazkur qaydlardagi eng ustuvor vazifa bu – zamonaviy talablar asosida raqobatbardosh kadrlarining kasbiy kompetentligini oshirish hisoblanadi. Demak, oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalarga yangi pedagogik texnologiyalar asosida tahsil berish o‘qituvchilardan yuksak darajadagi mahoratni talab qiladi.

Yuqoridagi omillar va vazifalardan kelib chiqib, ushbu qo‘llanma Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-mutaxassislik 4-kurslarida o‘tiladigan “Tarix fani bo‘yicha innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etish” tanlov fanining, shuningdek, Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha), Tarix (islom tarixi va manboshunosligi) va Buxoro tarixi ta’lim yo‘nalishlari 3-bosqich talabalariga o‘tiladigan Jahon tarixi (eng yangi davr) va “Tarix o‘qitish metodikasi” fanlarning o‘quv mashg‘ulotlari uchun tayyorlandi. Mazkur qo‘llanma o‘qituvchilarga Jahon tarixi darslari (**1918-1939 yillarda Turkiya va Yaponiya mavzulari**)ni nazariy hamda amaliy jihatdan tashkil etishlari

uchun yordam beradi, shuningdek, tarix yo‘nalishi kunduzgi va sirtqi kurs talabalariga metodika fani asoslarini egallashlarida, amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishlarida ushbu qo‘llanmaning ahamiyati muhim deb hisoblaymiz.

1. Tarix ta'limi jarayonining umumiy tavsifi

- 1.1. Jahon tarixi fani bo'yicha innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etishning amaliy ahamiyati, maqsad va vazifalari
- 1.2. Tarix o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiya va innovasiya tushunchasi
- 1.3. Jahon tarixi fani mavzularini o'tishda o'qituvchining innovation yondashuviga oid tavsiyalar

1. Jahon tarixi fani bo'yicha innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etishning amaliy ahamiyati, maqsad va vazifalari

Tarix yo'nalishi talabalarining zamonaviy innovation texnologiyalar, ularning turlari hamda ulardan o'quv mashg'ulotlari jarayonida foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishining muhim omillaridan biridir.

Jahon tarixi fani bo'yicha innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etish davomida innovation texnologiya ta'rifi, tasnifi, metodik asoslari, ta'lim jarayonida innovation texnologiyalaridan foydalanish yo'llari va shu orqali o'quvchilarining bilish faoliyatini faollashtirish masalalari yoritiladi.

Jahon tarixi fani bo'yicha innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etishda qo'yidagi vazifalar belgilanadi:

- innovation ta'lim texnologiyalarining o'ziga xosliklari va qo'llanilish ahamiyatini isbotlash;
- talabalarni innovation xarakterga ega pedagogik faoliyatni tashkil etishga o'rgatish;
- ularda pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda turli innovation ta'lim texnologiyalari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, aralash o'qitish, keys stadi, masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologiyalaridan o'rinli, maqsadli foydalanish ko'nikma-malakalarini rivojlantirish
- talabalarning o'quv loyihalarini ishlab chiqish portfoliolarni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish malakalarini takomillashtirish
- talabalarda pedagogik kompetentlik sifatlarini yanada rivojlantirish
- talabalarda "istiqbol tarix fani o'qituvchi" kreativligini hosil qilish

2. Tarix o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiya va innovasiya tushunchasi

Tarix o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyasini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba qo'yidagi tushunchalarga ega bo'lishi kerak:

- innovation ta'lim texnologiyalarining funksiyalari;
- innovation ta'lim texnologiyalarining turlari va qo'llanilish sohalari;

- innovasion ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik-psixologik va metodik shart-sharoitlari;
- innovasion ta’lim texnologiyalarini loyihalash qoidalari;
- innovasion ta’lim texnologiyalarini: amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, modulli-kredit tizimi, masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilarining mohiyati;
- pedagogik kompetentlik asoslari va sifatlari;
- pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari, shakl va metodlari;
- pedagogik kompetentlik potensiali va undan oqilona foydalanish shartlari;
- pedagoglarning kasbiy faoliyat (o‘quv mashg‘ulotlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish)ga kreativ yondashishlari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi;
- aniqlashtirilgan o‘quv maqsadlarini shakllantirish;
- interfaol ta’lim texnologiyalariga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash va rejorashtirish;
- shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- talabalarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- interfaol ta’lim texnologiyalarini (amaliy o‘yinlar, muammolio‘qitish, interfaol ta’lim, modulli-kredit tizimi, masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilarini)ni oliy ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etish ko‘nikmalarini egallashi;
- innovasion ta’lim texnologiyalarini asosida o‘quv jarayonini “jonli”, ijodiy tashkil etish;
- innovasion ta’lim texnologiyalarining oqilona tanlab olish;
- mutaxassislik bilan bog‘liqlikda innovasion ta’lim texnologiyalarini real amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga erishish;
- innovasion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ommalashtirish malakalarini egallashi;
- innovasion ta’lim texnologiyalarini (innovasion ta’lim texnologiyalarini: amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, modulli-kredit tizimi, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologiyalarini)ga asoslangan o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- talabalarni izlanishli-ijodiy faoliyatga yo‘naltirish.

3. Jahon tarixi fani mavzularini o‘tishda o‘qituvchining kreativ yondashuviga oid mulohazalar

Hozirgi vaqtida ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovasiyalarni keng ko‘lamda qo‘llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovasiyalar ko‘laming ortib borishi, mamlakatda modernizasiya jarayoni tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta’lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo ko‘plab pedagogik

innovasiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta’lim jarayonlariga o‘qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tatbiq etish bo‘yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo‘lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta’lim tizimini joriy etishda Jahon tarixi fani o‘qituvchisining o‘z faniga va barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o‘rgana borib, ularni o‘z mehnat faoliyatida izchil qo‘llay bilish mahoratiga ega bo‘lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Shuningdek, bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha tarixchi-pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ko‘tarishda talabalarni ilm-fan taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlaridan xabardor qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o‘quv dasturlari mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali, zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, ular bilan bog‘liq metodik yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo‘lishi ma’lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida yangiliklardan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog‘liqdir.

Ma’lumki, bugun barcha davlatlar ta’limga imkon qadar ko‘p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investisiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg‘otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhit hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi - pedagogik innovatika jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Ayniqsa, Jahon tarixi fani o‘qituvchisi novator bo‘lishi shart. Novatorlik va yangilik - madaniyat, ta’lim va umumiylidka jamiyat rivojlanishining ikki jihat. An’analar va yangiliklarning xilma-xil munosabatlariga tayanib, madaniyatshunoslar jamiyatni an’anaviy va zamonaviya ajratib ko‘rsatishadi. An’anaviy jamiyatda an’ana novatorlik ustidan hukmronlik qiladi. Zamonaviy jamiyatlarda esa, novatorlik bazali qadriyat sanaladi.

Yigirmanchi asrning so‘nggi yillarida jahon miqyosida ta’lim sohasida yuzaga kelgan quyidagi “inqiroz”li holatlar “qo‘llab-quvvatlovchi” ta’limning muqobili sifatida “innovation” ta’limni rivojlanishining asosiy sabablaridan biri bo‘ldi. Turli davlatlarda uning xilma-xil shaklda namoyon bo‘lishida quyidagi umumiy jihatlar yorqin namoyon bo‘lmoqda:

1) ijtimoiy amaliyot rivojlanishi ehtiyojlari va oliy ta'lim bitiruvchilarining real tayyorgarlik darajasining o'zaro mosligini ta'minlash;

2) Respublikamiz ta'lim tizimida tarix faniga yangi maqsadlarning qo'yilishi hamda darsning tashkiliy tuzilishi va shakllarining o'zgarishi;

3) ta'lim jarayoniga o'quvchilarning qiziqish va imkoniyatlarining ortishi. Ayniqsa, O'zbekiston tarixi fanining kirish imtihonlariga majburiy fan sifatida kiritilishi bu jihatdan ahamiyatlidir.

1979 yilda "Rim klubi" a'zolari "o'zining asosida avval ma'lum, takrorlanuvchi vaziyatlarga tuzatish kiritish uchun taqdim etilgan metod va qoidalarni ifoda etuvchi" ta'lim tizimini "qo'llab-quvvatlovchi" ta'lim deb nomlashdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, uning muqobili sifatida "innovation ta'lim" tushunchasi ham qo'llanila boshlandi.

Ilm-fan va ishlab chiqapishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqticodiy tapaqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o'zgapishlapning po'y berishiga zamin yapatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo'lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta'lim sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o'zlashtirilgan nazariy bilimlar bilan yangi o'zlashtiriladigan bilimlar oracida muctahkam bog'lanishlarning yuzaga kelishi bilan belgilanadi.

Mazkur jarayonda Juhon tarixi fani o'qituvchisi quyidagi qoidalarga amal qilish talab etiladi:

- teng qiymatli (ekvivalent) amaliyot qoidaci: ta'lim oluvchilarning ta'lim jarayonidagi xatti-hapakatlari test o'tkazish yoki imtihon davrida ta'lim oluvchi tomonidan tashkil etilishi kutiladigan xatti-harakatlarga to'la mos keladi;

- o'xshash amaliyot qoidaci: ta'lim oluvchilar codir etilishi kutilayotgan xatti-harakatlarini tashkil etish majburiyatiga ega bo'lmay, balki mohiyatan shunday bo'lgan sharoitlarda mashq qilish imkoniga ega bo'ladilar;

- natijalarini aniqlash qoidaci: ta'lim oluvchining har bir xatti-harakatining mazmunini baholash natijalari bo'yicha ma'lumot berish, mazkup shartga akcariyat hollarda joriy nazoratni tashkil qilish jarayonida rioya etiladi;

Real ta'lim amaliyoti ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini to'liq tasdiqlamoqda. Biroq ilg'or pedagogik texnologiyalarni oliy ta'lim jarayoniga qo'llash bilan bog'liq bir qator muammolar ham ko'zga yaqqol tashlanmoqdaki, ularni e'tiborga olish va hal etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday dolzarb muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ta’lim tizimida Jahon tarixi fanlari bo‘yicha qo‘llash uchun mo‘ljallangan interfaol metodlar tasnifi va ularning mazmun-mohiyatini yoritib beruvchi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarining yetarli emasligi. Garchi respublikamizda pedagogik texnologiyaga doir qator o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, mazkur o‘quv qo‘llanmalar asosan interfaol metodlarga faqat ta’rif berish, mazmuni va qo‘llash bo‘yicha umumiy xarakterga ega. Ularda alohida fan va uning mavzulariga doir metodik ko‘rsatmalar aniq o‘z ifodasini topmagan. Mazkur holat oliv ta’lim professor-o‘qituvchilarining interfaol metodlarni qo‘llashga doir ma’lumotlardan to‘la xabardor bo‘lmasligiga olib kelmoqda. Ta’lim jarayonini kuzatish professor-o‘qituvchilar keng qo‘llaydigan interfaol metodlar juda kamchilikni tashkil etishini ko‘rsatadi.

2) Jahon tarixi fanlaridan dars olib borayotgan professor-o‘qituvchilar interfaol metodlarni qo‘llashda metodik qoidalarga to‘liq rioya etishlari lozim. Boshqacha aytganda, interfaol metodlar fanning o‘ziga xos xususiyati, mavzuning maqsad va vazifalari, talabalarning yosh xususiyatlari, mashg‘ulot shakli, auditoriyada maqbul shart-sharoitning mavjudligi kabi jihatlarni aniq hisobga olgan holda qo‘llash lozim. Oddiy bir misol: o‘qituvchilar, ayniqsa, yosh o‘qituvchilar deyarli har bir mashg‘ulotida klaster metodini qo‘llaydi. Eng qizig‘i, mazkur metod orqali o‘quv maqsadiga erishish mumkin yoki mumkin emasligidan qat’iy nazar undan foydalanish holati ko‘p uchraydi. Bundan tashqari, uch-to‘rt doirani chizish orqali tarmoqlar hosil qilish ham mumkin emas. Mazkur metod talabalarning ma’lum bir narsa-hodisa, jarayon yoki tushunchaga oid fikrlarini umumlashtirish, ularni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Ana shu asosdan kelib chiqqan holda, klaster metodidan o‘tilgan materialni mustahkamlash bosqichidagina foydalanish mumkin. Yuqorida fikrlarni umumlashtirib aytganda, interfaol metoddan noo‘rin foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga emas, aksinchi mashg‘ulot sifatini pasaytirishga olib keladi;

Tarix ta’limi jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish an’anaviy o‘qitish tizimining muqobili sifatida xizmat qilishi lozim. Chunki barcha auditoriya mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llashga zaruriyat yo‘q. Eng asosiysi, texnologik yondashuv asosida o‘quv mashg‘ulotida kutilgan natijaga erishilishi lozim. Mazkur jarayonda maqsadga erishishga imkon beruvchi istalgan maqbul metodlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, professor-o‘qituvchilarining texnologik yondashuvni noto‘g‘ri talqin etgan holda, ma’ruza mashg‘ulotlarini talabalarning o‘zлari tomonidan o‘tib berilishini talab qilishlari ham maqsadga muvofiq emas. Ma’ruza mashg‘ulotiga nisbatan bunday yondashuv uning samaradorligini ta’minlashga to‘liq xizmat qilmaydi. Tarix o‘qitishning asosiy shakli sifatida ma’ruzaga qo‘yiladigan metodik, shu jumladan, ma’ruzachiga qo‘yiladigan talablar mavjud. Mazkur talablarning to‘liq bajarilishi tarix fani

o‘qituvchisi orqaligina samarali amalga oshishi mumkin. Faqat anjuman-ma’ruza mashg‘ulotlarini talabalarining ma’ruzalari asosida tashkil etish imkoniyati mavjud va bu sohada respublikamizda katta tajriba to‘plangan. Bunda ham anjuman-ma’ruzani tashkil etish va o‘tkazish talablariga rioya qilinishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, oliy ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi metodik vazifalarni muvafaqqiyatli hal etish lozim:

1) Juhon tarixi fani o‘qituvchisi “interfaol metod”, “strategiya”, “texnologiya” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini aniq tushunib olishlari lozim. Mazkur tushunchalarning mohiyatini to‘g‘ri anglay olmaslik ularni qo‘llashda ko‘plab metodik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Oliy ta’limda asosiy e’tibor o‘qitish jarayonini loyihalash (texnologik model) va rejalashtirish (texnologik xarita)ga, ya’ni texnologizasiyaga qaratilishi kerak;

2) Juhon tarixi fanlarini o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda metodik qoidalar va ko‘rsatmalarga rioya qilinishi kerak. Aniq metodik ko‘rsatmalarga rioya etish orqali intferfaol metodlarni samarali qo‘llash imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga xizmat qiladi;

3) fanlar bo‘yicha ta’lim texnologiyalarini yaratishda xilma-xillik, ijodiylik, innovasion yondashuvlarga asoslanish, bir qolipga tushib qolishdan saqlanish maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda fanlarning, mashg‘ulot shakllari, mavzularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashish o‘rinli bo‘ladi;

Bugungi kunda Juhon tarixi fani o‘qituvchisiga qo‘yiladigan muhim talablar quyidagilar deb hisoblaymiz:

1. Tarixni o‘tmishda va hozirda kechayotgan shunchaki dalil va raqamlar hamda voqeliklar jarayonigina deb qarash emas, balki ma’naviy meros, hayot va yashash, istiqbol poydevori sifatida idrok etish salohiyatiga ega bo‘lish.
2. O‘zbekiston va Juhon tarixi voqeliklarini teran kuzatib borish, O‘zbekiston tarixi umumjahon tarixining ajralmas bir qismi ekanligi, shuningdek, o‘ziga xos taraqqiyot xususiyatlariga egaligini ham nazardan qochirmaslik.
3. O‘z bilim va ko‘nikmalarini doimo takomillashtirib borish, har bir o‘tiladigan Juhon tarixi mavzusini “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” bilan bog‘lab o‘quvchi va talabalar ongiga singdirish uslubini qo‘llash.
4. O‘qituvchi ilm-fan va texnologiya sohasida yuz berayotgan intensiv o‘zgarishlarni ilg‘ay olishi, ommaviy-axborot vositalari, internet ma’lumotlarini, innovasiyalarni o‘tiladigan Juhon tarixidan har bir dars jarayoniga olib kirishi, ta’limni samarali bo‘lishi uchun zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishi kerak.

5. O'quvchi va talabalarni O'zbekistonda, Markaziy Osiyo mintaqasida hamda jahonda kechayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlardan mutassil xabardor qilib turish uchun Jahon tarixi fani o'qituvchisi doimiy o'zini-o'zi takomillashtirishga e'tibor qaratishi zarur.

Nazorat savollari

1. Jahon tarixi fani bo'yicha innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etishning amaliy ahamiyati qanday?
2. Tarix ta'lif jarayonining innovation xarakterining o'ziga xosligi nimada?
3. Tarix o'qitish metodikasi va ta'lif texnologiyasini o'zlashtirish jarayonini qanday tahlil etasiz?
4. "Istiqbol tarix fani o'qituvchi" kreativligini hosil qilish deganda nimani tushunasiz?
5. Jahon tarixi fanini o'qitishda o'qituvchining informatika va axborot texnologiyalari bilim darjasini qanday bo'lishi lozim?
6. Jahon tarixidan mustaqil ta'lifni tashkil etishning qanday turlarini bilasiz
7. Jahon tarixi darslarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish texnologiyasining qanday turlarini bilasiz?
8. Prezentasiya darslarini tashkil etishga qo'yiladigan talablarning qanday turlarini bilasiz?
9. Tarix ta'limi vositalaridan foydalanishga innovation yondashuvning qanday turlarini bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: "O'zbekiston". – 2017.– 102b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008.- 176 b.
4. «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». T. 1997.64 b.
5. Avliyakulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. O'quv qo'llanma. -T: 2001.–68 s.
6. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N. Kasb-hunar kollejlarida kasbiy fanlarning modulli o'kitish texnologiyalari. O'quv metodik qo'llanma. - T.: Yangi asr avlod, - 2003. – 88 s.
7. Azizzodjayeva N.N. Pedagogicheskije texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. - Tashkent: Moliya, 2002.

- 8.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. “Ta’limda innovation texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar)”. - Toshkent, “Iste’dod”, 2008.
- 9.Fuzailova G., Rahmatullayeva O. Tarix fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi. (O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma).-T.: TDPU, 2012. -140 b.
10. Rahmonov K. “1918-1939 - yillarda Fransiya” mavzusi yuzasidan dars ishlanmasi. Metodik qo‘llanma. Buxoro -2020. -22 bet

2. Jahon tarixinining "1918-1939 yillarda Turkiya" mavzusi bo‘yicha innovasiyalar va interfaol metodlarni tadbiq etish bo‘yicha tavsiyalar

- 2.1. “1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusining dolzarbliji va umumiy tavsifi
- 2.2.“1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusiga oid qo‘srimcha manbaviy materiallarning amaliy ahamiyati
- 2.3. Mavzu yuzasidan interfaol metodlarni tadbiq etish bo‘yicha tavsiyalar

2.1. “1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusining dolzarbliji va umumiy tavsifi

Tarixiy bilim va tushunchalarni egallashda dunyo mamlakatlarida kechayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy jarayonlardan xabardor bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, dunyo ko‘p qutbli bo‘lgan hozirgi davrda tinchlik va xalqaro hamjihatlikning roli oshib borayotganligi isbot talab qilmaydi. Yuqorida omillardan kelib chiqib, Tarix (jahon mamlakatlari bo‘yicha) yo‘nalishi talabalariga, shuningdek, o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilariga o‘quv rejasiga asosan o‘tilayotgan “Jahon tarixi” fanini chuqur va mukammal o‘rgatish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etadi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Jahon tarixi” fani o‘quv dasturi¹da va o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлигининг 2017 йил 28 августдаги 607-сонли буйруғи билан тасдиқланган “Жаҳон тарихи” фан дастури. –Тошкент. 2017. -45 бет

hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun “Jahon tarixi (1918-1991 yillar)” nomli darsligi²da Turkiya tarixiga salmoqli sahifalar ajratilgan.

Demak, tarix fani o‘qituvchisi “1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusidagi dars mashg‘ulotlari (ma’ruza, seminar, aralash dars)ni o‘z kompitentsiyasi va zamonaviy metodologiyasi asosida ta’limiy, tarbiyaviy, innovasion keng qamrovli tashkil etishga mas’ul hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi darsliklardan tashqari qo‘srimcha innovasion materiallardan foydalanishi juda zarurdir. Mazkur metodik qo‘llanma tarix fani o‘qituvchilariga yuqoridagi talablarni amalga oshirishlari uchun xizmat qiladi.

Tarixiy ilm va tushunchalarni egallashda ikki jahon urushi oralig‘ida dunyo mamlakatlarida kechgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy jarayonlardan xabardor bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, dunyo ko‘p qutbli bo‘lgan hozirgi davrda tinchlik va xalqaro hamjihatlikning roli oshib borayotganligi isbot talab qilmaydi. 1918-1939 yillarda Turkiya mavzusini chuqur va mukammal o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Ikkinchidan, XX asrning 20-yillarida BXSR-Turkiya o‘rtasidagi aloqalarning yo‘nalishlari hamda tarixiy tajribasidan xulosalar chiqarish ham muhimdir.

Jahon tarixi fanidan “1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusini atroflicha va keng qamrovli o‘rganish uchun 1917-1930 yillarda Turkistonda chop etilgan davriy matbuot materiallari, mavzuga oid qo‘srimcha boy ma’lumotlar beradi. Jumladan, 1920-1929 yillarda Buxoroda dunyo yuzini ko‘rgan, Buxoro mahalliy matbuot organlari- “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari³da Turkiyaning urushdan keyingi o‘n yilliklaridagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahvoliga oid ko‘pgina ma’lumotlar keltirilgan. Turkiyadagi siyosiy ahvol, uning birinchi rahbari Mustafo Kamolning faoliyati to‘g‘risida ko‘p voqeliklardan voqif bo‘linadi. Ayniqsa, Turkiya - BXSR o‘zaro diplomatik aloqalari tarixiga oid qiziqarli ma’lumotlar mahalliy matbuot sahifalarida keltirilgan. Shuningdek, qo‘srimcha adabiyotlar sirasiga taqdir taqozosi bilan Turkiyaga muhojirlikka ketishga majbur bo‘lgan vatandoshlarimiz haqidagi istiqlol yillarida yaratilgan kitob va maqolalardan ham foydalanish ma’lumotlar doirasini kengaytiradi.

² Жаҳон тарихи [Матн]: ўрта таълим муассасаларининг 10-синфи ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими муассасаларининг ўқувчилари учун “Жаҳон тарихи (1918-1991 йиллар)” дарслиги /Ш.Эргашев, Б.Ходжаев, Ж.Абдуллаев. –Тошкент: “Гурон-Иқбол”. 2017.-144 б.

³ “Бухоро ахбори” газетаси БХСР Марказий Ижроия Кўмитаси матбуот органи бўлиб, 1920 йил 9 сентябрдан 1923 йил октябргacha чоп этилган. Газета ўзбек тилида, ислоҳ қилинган араб имлосида, сарғиши рангли ўртача сифатдаги қоғозда, хафтада 1-2 марта, 1500-2000 нусхада чиқарилган. 1923 йил 16 октябрдан “Озод Бухоро”номида газета нашр қилина бошланган. Бу газета 1930 йил октябр ойигача чиқиб турган.

Газеталарнинг тўлиқ тахламлари бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви (Ўзбекистон МДА) ва Абу Али Ибн Сино номидаги Бухоро вилояти марказий кутубхонасида сакланмоқда.

Dars jarayonida o‘qituvchi o‘tgan mavzuni mustahkamlash bosqichini yakunlab, darsning yangi mavzu bo‘limida mavzuni umumiy tavsiflaydi (1-reja bayoni orqali) va qo‘sishimcha manbalar orqali o‘quvchilarga mavzuni tushuntirish uchun mavjud materiallarni ikki guruhga ajratib oladi. Birinchidan, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida Turkiya milliy mustaqilligini to‘la ta’minlash yo‘lida har qanday qurbanlar berishga tayyor ekanligi, xalqaro anjumanlarda o‘z izzat-nafsi himoya qilayotganligi bilan bog‘liq fikr-mulohazalarga boy maqolalar e’lon qilinganligini, Turkiyaning siyosiy, iktisodiy, madaniy hayoti bilan bog‘liq xabarlarga salmoqli o‘rin ajratilgan bo‘lib, «Sharq dunyosida Turkiya: Millat Majlisiga kimlar saylandi?», «Turkiya-Polsha shartnomasi», «Turkiyada Albaniya hay’ati», «Turkiyada yangi Amerika shirkati», «Turkiyada Milliy Majlis ochildi», «Turkiya hukumatining Shimoliy Amerika Jumhuriyatiga murojaati», «Turkiya-Armaniston munosabatlari», «Istambul bo‘shatildi», «Turkiyaga mutaxassislarini jalb qilish», «Turkiya urushga qaror bergen»⁴, kabi o‘nlab xabar va maqolalar gazeta sahifalarida mavjudligini qayd etadi.

Ikkinchidan, «Buxoro axbori»da Turkiya Respublikasining birinchi prezidenti, kamolchilar inqilobining tashkilotchisi va rahbari, yirik davlat arbobi, XX asr buyuk shaxslari qatoridan munosib o‘rin olgan Mustafo Kamol posho (1881-1938, 1923-1938) shaxsiyati hamda faoliyatiga bog‘liq bir qator maqolalar chop etilganligini, (hatto, «Ozod Buxoro» gazetasining 11(224)-sonida Mustafo Kamolning kiyofasi aks ettirilgan) gazetalarda «Inqilobiy turk askarlarining boshlig‘i qahramon - Kamol posho», «Mustafo Kamol-Millat Majlisi raisi», «Mustafo Kamol posho- Jumhurrais», «Mustafo Kamol posho va sovet rahbarlari»⁵, kabi yirik maqolalar bosilganligini, bularda uning hayot yo‘li, siyosiy faoliyati, harbiy qo‘mondonlik mahorati, Turkistonga munosabati atroflicha bayon qilinganligi aytiladi.

Tarix fani o‘qituvchisiga dars mashg‘ulotining yangi mavzuni mustahkamlash qismi uchun bir necha interfaol usullardan foydalanishga tavsiya beriladi.

Usmoniyalar imperiyasi Germaniya va uning ittifoqchilari safida turib Birinchi jahon urushida qatnashdi va mag‘lubiyatga uchradi. Imperiya hududi okkupasiya qilindi. Antanta mamlakatlari Usmoniyalar imperiyasiga qarashli yerlarni bo‘lib olish rejasini tuza boshladilar. Imperianing o‘z hududidan tashqaridagi barcha yerlari anneksiya qilindi va 1919 yili Parij konferensiyasi qaroriga ko‘ra Millatlar Ligasining mandati ostiga o‘tdi. G‘arb davlatlari Turkiyaning hududiga ko‘z tika boshladi. 1920 yilgi Sevr shartnomasiga ko‘ra Turkiya hududi bir guruh Yevropa

⁴ «Бухоро ахбори» 1923 йил 2 август 185-сон, 7 август 187-сон, 11 август 188-сон, 15 август 190-сон, 29 август 195-сон, 5 октябр 210-сон, 10 октябр 212-сон, 12 октябр 213-сон.

⁵ Ўша газеталар. 106-сон, 1922 йил 29 октябр. 193-сон 1923 йил 24 август.

davlatlari o‘rtasida bo‘lib olinishi ko‘zda tutildi. Ularning surbetlarcha harakati turk xalqining g‘azabini oshirdi. Mamlakatda qarshilik harakati boshlandi. Harakatga **general Mustafo Kamol posho** rahbarlik qildi.

G‘arb davlatlari tomonidan qo‘llab-quvatlangan Gresiya armiyasi Turkiya hududiga kiritildi. Shu tariqa Turkiya-Gresiya urushi boshlandi. Uzoq davom etgan janglardan so‘ng **1922 yil oktabrga** kelib, M. Kamol qo‘sishlari butun Turkiya hududini ozod qildi. **1922 yil 1 noyabr** kuni Turkiya Buyuk Millat majlisi sulton hokimiyatini bekor qilish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Sulton Mexmed VI taxtdan ag‘darildi va mamlakatni tark etdi. **1923 yili Lozannada** Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa bir qator davlatlar bilan M. Kamol hukumati imzolagan yakuniy shartnomaga ko‘ra, Turkiya o‘z suvereniteti va hududiy yaxlitligini saqlab qoldi.

1923 yil 29 oktabrda Turkiya respublika deb e’lon qilindi, M. Kamol respublika prezidenti etib saylandi. Mamlakatda uzoqni ko‘zlab amalga oshirilgan islohotlar boshlandi.

Islohotlarning bosh maqsadi – mamlakatni modernizasiya qilish deb e’lon qilindi. Bu Yevropa sivilizasiyasining barcha taraqqiyatishni qabul qilish va ularni Turkiya sharoitiga moslashtirishni anglatar edi. Islohotlarning birinchi tamoyili dunyoviylik, dinni davlatdan ajratish bo‘ldi. Arab alifbosidan voz kechib, lotin alifbosi joriy qilindi. Yevropacha nasab (familiya) kiritilib, Buyuk millat majlisi M. Kamolga rasman «Otaturk» (turklar otasi) degan nasabni berdi.



1920 yilgi Sevr shartnomasiga ko‘ra Turkiyaning taqsimlanishi.

1920 yillari iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishini chet ellik mulkdorlardan sanoat korxonalarini, infratuzilma obektlari, temir yo‘llarni sotib olish, milliy sanoatni yaratish tashkil qildi.

Otaturk tashqi siyosatining asosiy vazifasi Turkiyaning xalqaro obro‘sini oshirishga qaratildi. **1932 yili** Millatlar Ligasiga a’zo bo‘lgan Turkiya barcha davlatlar bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatishga harakat qildi.

M. Kamol Germaniya bilan munosabatlarga alohida e’tibor qaratdi. Turkiya tashqi savdosining katta qismi Germaniya hissasiga to‘g‘ri kelardi. **1941 yili** Germaniya bilan do‘stlik shartnomasi imzolandi. Turkiya Ikkinchiji jahon urushida rasman betaraf qolgan bo‘lsa-da, hukmron doiralarning katta qismi Germaniyaga xayrixoh edi⁶.

2.2.“1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusiga oid qo‘shimcha manbaviy materiallarning amaliy ahamiyati

Birinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng Sharq dunyosida milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurashlar avj oldi. Ma’lumki, Turkiya (Usmoniylar sultanati) Germaniya tomonidan urush harakatlariga kirib, Uchlar ittifoqi yengilganidan so‘ng o‘z milliy birligini yo‘qotish xavfi ostida qoldi. Hatto, mamlakat poytaxti Istanbulni Angliya egallab oldi. 1918 yilning oxiridan Turkiyadagi ozodlik kurashiga turkiy xalqlarning buyuk farzandi Mustafo Kamol Posho boshchilik qilib, 1920-1923 yillarda u tuzgan «Anqara muvaqqat hukumati» mustamlakachilarni (asosan Angliya va Italiya harbiy kuchlari) ona-Vatani tuprog‘idan haydab chiqarishda yo‘lboshchilik qildi.

Turkiyada siyosiy voqealar keskin kechayotgan bir davrda BXSR (1920-1924) o‘zining faol ichki va tashqi siyosatini yuritayotgan edi. Buxoro Respublikasining istiqbolli rejasida xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona diplomatik, iqtisodiy, madaniy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Avvalo, uzoq asrlik an‘anaviy hamkorlik aloqalarida bo‘lgan Turkiya bilan qizg‘in munosabatlarga kirishildi. Umuman XX asr boshlarida Turkiyadagi “yosh turklar” bilan Buxoro jadidlari - “yosh buxoroliklar” o‘rtasida do‘stona, ma’rifiy-madaniy aloqalar o‘rnatilgandi. Buxorolik jadidlar Turkiyada nashr qilingan “Siratul mustaqim” (To‘g‘ri yo‘l) jurnalini katta qiziqish bilan o‘qib borishgan. Uzoq vaqt Yevropa mamlakatlari va Turkiyada yashagan, asli ota-bobosi buxorolik, keyinchalik taqdir taqozosi bilan sibirlik o‘zbek bo‘lib qolgan Abdurashid Abdurahim jadidchilik harakatida birinchi marta milliy, madaniy, siyosiy mustaqillik masalalarini kun tartibiga qo‘ygandi.

⁶ Жаҳон тарихи [Матн]: ўрта таълим муассасаларининг 10-синфи ва ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими муассасаларининг ўқувчилари учун “Жаҳон тарихи (1918-1991 йиллар)” дарслиги /Ш.Эргашев, Б.Ходжаев, Ж.Абдуллаев. –Тошкент: “Турон-Иқбол”. 2017. -Б. 57-59.

Buxoro jadidlaridan Abdurauf Fitrat, Abdulvohid Munzim, Hamidxo‘ja Mehri, Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayevlar 1908-1910 yillarda Turkiyaga tahsil olish uchun borgan edilar.

1910 yil Turkiyada Abdurauf Fitratning (1886-1938) “Sayha” she’riy to‘plami, “Munozara” va “Hind sayyohi” kabi falsafiy asarlari yozilgandi. “Muxtasari tarixi islom” (Islomning qisqacha tarixi) kitobi ham ushbu mamlakatda dunyo yuzini ko‘rgandi. Abdurauf Fitrat asarlarining asosiy g‘oyasi: Turkiston hozir turg‘unlikda, Ovro‘paga ergashib iqtisodiy islohotlar o‘tkazishi uchun Turkiyadan namuna olishi kerak.

“Turkistonliklar birinchi jahon urushi yillari arafasida va urush yillarida Turkiyaga qardoshlik yordamini ko‘rsatish maqsadida mablag‘ ham to‘plaganlar.. 1913 yil 13 aprelda 28000 so‘m miqdorida Turkiya uchun “Xayriya” to‘plandi”, - deb yoziladi manbalardan birida.

Yangi tarixiy vaziyatda, haqiqatdan ham BXSR tashkil topgan 1920 yilda Turkiya siyosiy hayotida istiqlol uchun kurash avj olgandi. Turkiy xalqlarning asl vatani bo‘lgan Turkistonda Turkiyadagi tarixiy jarayonlarni o‘ta sinchkovlik bilan kuzatib borish, turklarni imkon qadar ma’naviy-moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yo‘lini tanlanishi o‘z-o‘zidan ayon edi. Yuqorida qayd qilinganidek, Birinchi jahon urushidan mag‘lub bo‘lib chiqqan Turkiya 1920 yil 10 avgustda Parij yaqinidagi Sevr shaharchasida Antanta davlatlari bilan imzolangan shartnomaga ko‘ra, amalda yarim mustamlakaga aylantirildi. Fransiya va Angliya o‘rtasida taqsimlangan Usmoniyalar sultanati faqatgina Kichik Osiyo yarim oroli hamda Istanbul bilan cheklanishga majbur bo‘ldi. Istanbul ingliz istilochilari tomonidan egallanib, progressiv kuchlar Anqarada Mustafo Kamol raisligida “Yangi Anqara muvaqqat hukumati”ni tuzib, ozodlik va mustaqillik uchun kurash maydoniga kiradilar. Antanta davlatlari, ayniqsa, Angliyaning qo‘llab-quvvatlashi bilan yunonlar “Buyuk Gresiya” davlatini tuzish bayrog‘i ostida turklar shahri Izmirni istilo qiladilar.

Hayot – mamot jangiga kirgan “Anqara muvaqqat xukumati” va uning yo‘lboshchisi Mustafo Kamol haqida “Buxoro axbori” gazetasi: “1921 yil 16 iyulda turklar Mustafo Kamol posho boshchiligidagi butun front bo‘ylab yunonlarga qarshi qat’iy va umumiylar harakatlar boshlag‘onlar. Shul vaqtida turklar dushmonning 3-4 barobar ko‘p bo‘lg‘on kuchlariga qarshi qat’iyat bilan kurashib, ular hujumini to‘xtaturlar. Yashasin o‘zlarining qahramonlik va g‘ayratlari orqasinda Yevropa tahlikasiga (Yunoniston va Angliyaga) qarshi turib harb maydonida umumiylig‘alaba qozonib, o‘z vatanlarini mudofaa qilg‘on turk askarlari!”⁷- deb yozgandi.

Turkiya va yunon urushlari ikki yil (1920-1922) davom etib, 1922 yil 9 sentyabr Muddaniya jangida turklar hal qiluvchi g‘alabaga erishdi va Izmirdan

⁷ Зиё Усмоний. Туркия ҳамда юон мухорабаси // Бухоро ахбори, 50-сон, 1921 йил 25 сентябр.

yunonlarni haydab chiqardi. “Anqara muvaqqat hukumati” qo‘shinlari Mustafo Kamol posho rahbarligida turk shaharlari hisoblangan Bursa, Ardashon, Ig‘dir, Eskishaharlarni ham egalladilar.

Turklarningadolatli urushdagi muvaffaqiyati haqida: “Nihoyat turklar o‘z ozodliklari yo‘lida harakat qilib, zarba berdilar. O‘zlarining ozodligi uchun butun islam dunyosi Angliya va uning mamlakatlari bilan muqaddas urushga kirishdilar. Turklar ozodlik bayrog‘ini baland ko‘tarib, o‘z istiqrollarini qo‘lga kiritmishlar”⁸, - deb yozilgandi ma’lumotlardan birida.

“Anqara muvaqqat hukumati”ning ozodlik uchun kurashi Buxoro xalqining muhim diqqat markazda bo‘lgan. Turkiya hukumati 1921 yil 16 martida RSFSR bilan diplomatik va hamkorlik shartnomasini imzolaydi. Sovet hukumatining mutassadilari Lenin, Chicherin, Karaxanlardan Mustafo Kamol poshoning Moskvadagi vakili Bekir Semibey moliyaviy yordam so‘raydi. Sovet davri tarixiy adabiyotlarida 1920 yil sentyabrdan 1922 yil may oyiga qadar sovet hukumati uchun og‘ir va mashaqqatli yillar bo‘lib, Mustafo Kamol hukumatiga BXSR hukumatida avval moliya noziri, keyin esa Markaziy Ijroiya Qo‘mita raisi lavozimida ishlagan Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayev (1878-1968) Buxoro hukumati xazinasidan 100 mln. oltin so‘m mablag‘ bilan moddiy yordam ko‘rsatgan. Ushbu mablag‘ning asosiy qismi Moskvada saqlab qolinib, 10/1 ulushigina Onado‘li (Turkiyaga)ga yuborilgan. Turk tarixchi olimlaridan Mehmet Saray 1990 yilda Istanbulda chop ettirgan “Otaturkning sovet siyosati” nomli kitobida: “Sovetlarning Turkiyaga yordami to‘liq bo‘lmasada, ammo o‘sha paytda milliy ozodlik harakati g‘alabasida muhim rol o‘ynagandi”, -deb yozgandi. Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayev muhojirlikka ketganidan so‘ng 1922-1923 yillarda Mustafo Kamol posho bilan muloqotda bo‘lgan. Turkiyaning bo‘lajak prezidenti unga o‘z hukumati organlarida ishlashni taklif etgan. Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayev unga Turkiston tarixi, madaniyati qo‘lyozma asarlarini tadqiq qilish masalalari bilan shug‘ullanishini aytgan. Shundan keyin Turkiya hukumati tomonidan vatandoshimizga Mustafo Kamol bo‘yrug‘i bilan umrining oxirigacha katta miqdorda nafaqa tayinlanadi. Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayev vafotidan keyin bu nafaqa turmush o‘rtog‘i hisobiga o‘tkazilgan.

Buxoro xalqi turk-yunon urushi maydonida turklar qo‘li baland kelganligi munosabatila shodlik va xursandchilik bilan 1922 yil 12 oktyabrda miting va namoyishlar o‘tkazgan. Ularda davlat rahbarlari, islam ulamolari, oddiy mehnatkash aholi, maktab o‘quvchilari va madrasa talabalari ishtirok qilishgan. Turk shahidlarining ruhig Qur’oni karim tilovat qilinib, motam kuylari chalingan. Bu tadbirlarda BXSR Xalk Nozirlar Sho‘rosi muvaqqat raisi Ato Xo‘ja, BXSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisining birinchi muovini Aminov, maorif noziri Qori

⁸ Г.Хасаний. Туркларнинг ғалабаси муносабатила // Бухоро ахбори, 101-сон, 1922 йил 28 сентябр.

Yo‘ldosh Po‘latov, hatto, Rossianing Buxorodagi vakili Fonshteyn ham nutq so‘zlagan. O‘sha kuni miting kechgacha davom etgan. Buxoro xalqidan Turkiya hukumati nomiga tabrik telegrammasi tayyorlangan. Mazkur telegrammadan: “Dushmonni tor-mor qilib buyuk maydon muhorabadagi Turkiyaning matlubini hal etib, ushbu porloq tarixiy g‘alabangizni, uch million nufuzinda bo‘lg‘on va ikki yildan buyon sizni jahongir sarmoyadorlarni yengishingizni tilog‘on Buxoro xalqi nomidan samimiylidkan tabrik etadur, olqishlarla ushbu shodligingizga sherik bo‘lamiz. Sizning g‘alabangiz munosabatila butun Buxoro aholisi va inqilobiy sho‘rolar hukumati 12 oktyabrda o‘zining ma’murlari, ziyolilari, talabalari bilan buyuk bir miting tartibila o‘tkazdi. Aholimizning ruhli shodligi maqsadi ila Buxoroning “Masjidi Kaloni”da xatmi Qur’on o‘qilib, shahidlarning ruhiga hadya etdi. BXSHJ hukumati turklarning porloq natijalarini, Istanbul hukumati qat’iyatingizni butun hayajon va intizor etmakdadur.

Yashasin turklarning g‘alabasi!

Qahr o‘lsun, mag‘lub o‘lsun, g‘arbning sarvatdor jahongirlari!”⁹- kabi satrlarni o‘qiyimiz.

Ikki hukumat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar esa ancha oldinroq, 1920 yilning qishidayoq boshlangan edi. Bu yo‘nalishda tashabbus “Anqara muvaqqat hukumati” tomonidan boshlanib, 1920 yil BXSR hukumati tashkil topganidan 4 oy o‘tar-o‘tmas Mustafo Kamolning hukumati BXSRga birinchi bo‘lib o‘zining elchilarini yubordi. Buxoroda birinchi bo‘lib xorijiy mamlakatlardan Turkiya elchixonasi ish boshlaydi. Mustafo Kamol yuborgan Turkiya elchilari guruhiga G‘olib posho boshchilik qilgan. Anqara hukumatining Buxoro Respublikasidagi elchixonasi birinchi kotibi, taniqli turk yozuvchisi Rushen Ashraf bo‘lgandi.

1922 yilning mart oyida Buxoro Respublikasidan Mustafo Kamol posho hukumatini rasmiy suratda tanish va o‘zaro munosabatlar o‘rnatish uchun Mahmud Nazar xamda Mahmud Rajab afandilar boshchiligidagi buxorolik vakillar Anqaraga tashrif buyurishdi. Buxoro hay’atini rasmiy ravishda “Muvaqqat Anqara hukumati” tashqi ishlar vazirining muovini Ziyodbek hamda xorijiy ishlar vakili Yusuf Kamolbeklar kutib oladilar. Turk tarixchisi Mehmet Sarayning ma’lumoticha, Mahmud Nazar hamda Mahmud Rajablar bir paytlar Istanbulda tahsil olishgan. Mehmet Sarayning yozishchicha, ular elchilik vazifasini uddalab, ortga qaytganlarida rus ayg‘oqchilari (bolsheviklar) tomonidan xoinona o‘ldirilganlar. Ushbu tafsilotlar tarixiy dalillar orqali isbotlanish zarur.

⁹ Туркларнинг ғалабаси муносабатила Бухорода байрам //Бухоро ахбори, 103-сон, 1922 йил 19 октябр.

BXSRning favqulotda siyosiy vakillari sharafiga ziyofat uyushtirilib, unda Mustafo Kamol posho ham shaxsan ishtirot etgan. “Buxoro axbori” gazetasida Turkiya hukumati boshlig‘i Mustafo Kamol hamda Buxoro vakili Maxmud Nazar afandi nutqlari to‘la holda keltirilgan. Mustafo Kamol nutqida: “Dindosh va qondosh Buxoro xalqining orzusini yuzaga chiqarishi uchun bu qardosh millatga o‘zimning fotihamni beraman”¹⁰, -degan fikri bayon qilingan.

Buxoro hay’ati vakillari Mustafo Kamol poshoga hurmat va ehtirom ramzi sifatida yurtimizdan olib borilgan oltin dastali qilich, Amir Temur zamonida ko‘chirilgan Qur’oni Karimning nodir nusxalaridan birini hamda Turkiya xalq askarlari uchun Buxoro tasviri tushirilgan nishonlar taqdim etishdi.

Turkiyada ozodlik yo‘lida turk zabit va askarlarigina emas, xotin-qizlar, bolalar ham bosqinchilarga qarshi qahramonona kurash olib borayotganligi, mustaqillik oliy ne’mat ekanligi Buxoro xalqi tomonidan chuqr idrok qilingan. Muhimi shuki, o‘z mustaqilligi yo‘lida kurash olib borayotgan Buxoro Respublikasi harbiy va moddiy jihatdan Turkiyaga yordam berolmasa ham, uning ozodligini butun vujudi bilan qo‘llab-quvvatlayotganligi aniq edi.

Turkiyaga olib borilgan sovg‘alar orasida yuqorida qayd qilingan, shaxsan Mustafo Kamol poshoga atalgan oltin dastali qilich bilan birga bir sira ko‘rk (buxorocha sarupo) va yana ikki qilichning topshirilishi yuqoridagi fikrimiz to‘g‘rilibagini to‘la isbotlaydi. Mustafo Kamolga va uning shonli g‘oziy (g‘olib) armiyasiga atalgan qilichlar jasoratga chorlab, porloq g‘alabaga qadar ruhan tetik bo‘lishga da’vat qilishi o‘z-o‘zidan ayon edi. Ikki qilichdan biri qahramon Ismat poshoga hadya etilgan. Yunonlar istilo qilgan Izmirni ozod qilishda alohida jasorat ko‘rsatgan va shaharga dushman mudofaasini birinchi bo‘lib yorib kirgan otliq qo‘shin zobiti Sherifbeyga Buxorodan yuborilgan uchinchi qilich nasib etgandi. Uni Mustafo Kamolning o‘zi Sherifbey beliga taqib qo‘ygan¹¹. Mustafo Kamol ushbu sovg‘alarni Buxoro vakillaridan qabul qilib olar ekan, ajdodlari yurti Turkistonga e’tiqodi yuksakligini o‘z nutqida oshkor etib minnatdorchilik tuyg‘ularini bayon qildi. Ehtimolki, o‘sha og‘ir damlarda besh million aholili buxoroliklarning ma’naviy qo‘llab-quvvatlashi Mustafo Kamolni Turkiya ozodligi kurashi yo‘lida qat’iyatli bo‘lishida bir qadar madad bergandir. Zeroki, u ajdodlar yurti Turkistonga, ya’ni ildizga umid ko‘zlari bilan qaragan. Chunki ildiz ko‘kartuvchi, yashnatuvchi va yuksaklikka eltuvchi, ilhom beruvchi omildir. Bejiz bu ulug‘ inson “biz ham Turkistonning jujuqlarimiz (bolalarimiz)” demagandir.

“Buxoro axbori” gazetasi o‘z sahifalarida “Sharq dunyosi” rukni ostida Turkiyaning istiqlol yo‘lidagi g‘alabalaridan ilhomlanganligi bilan bog‘liq bo‘lgan

¹⁰ Бухоро хайъати Мустафо Камол пошо хузурида //Бухоро ахбори, 77-сон, 1922 йил 4 апрел.

¹¹ Mehmet Saray. Milli Mucadele Villarinda Buhara Cumhuriyetinin Turkiye Vardimi. Turkistonda Venilik Hareketleri ve ihtilaller: 1900-1924. Haarlem. 2001: 341, 342.

maqlalar e'lon qilib bordi. Maqlalardan birida: «Yevropa jahongirlarining harakatiga mahkum etilganligi uchun Eron, Afg'oniston, Usmonli (Turkiya), Arabiston, Turkiston, Buxoro, Xorazm va islom o'lkalari bir-birlari bilan hamsoya bo'lg'onlari holda mustaqil bir ittihod (ittifoq) vujudga keltirib, o'zlarining istiqloliyatlarini muhofaza qilib biladurlar. Agarda bu hukumatlar orasinda ittifoq vujudga kelsa, ul vaqtida faqat islom olamining emas, balki butun Sharq millatining G'arbiy Yevropa zanjiri asoratidan xalos bo'lishi muqarrar»¹², -kabi satrlarni o'qiymiz.

Turkiyaning Angliya singari qudratli davlatlarga qarshi Vatan mustaqilligi va himoyasi uchun kurashi gazetada jasorat barobar baholanib, unga ma'naviy va moddiy yordam berishga da'vat qiluvchi talaygina maqlolalar bor. 1921-1922 yillarda Buxoro hukumati kamolchilar inqilobi g'alabasi uchun ham moddiy, ham ma'naviy yordam bergenligi bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud.

Muhojir o'zbeklar bilan shaxsiy muloqotlarda Istanbul inglizlar qo'liga o'tgan bir davrda (1920 yil) yurtdoshlarimiz Anqaraga, ya'ni Mustafo Kamol hukumati va harbiy qismlari uchun bu shahar orqali yashirin ravishda moddiy va harbiy madad sifatida oziq-ovqat va qurol-yarog' yuborib, Turkiya istiqloliga munosib hissa qo'shganliklari ham bizga ma'lum.

«Buxoro axbori»da: «Inqilobiy Turkiyaga yordam kerak» maqolasi bosilib: «Biz Turkiyani ozodlik yo'lida kurash maydoniga kirib, 200-300 kishilik askariy firqalarda qo'mondonlik qilgan turk xotinlarini ham muhorabada ko'rdik... Turkiya xalqining bizdan boshqa do'stlari va xayriohlari yo'qdur, Turkiyaga yordam ko'rsatmak va shuning bilan turk xalqiga ruh bermak bizning qarzimizdur»¹³, - deb yozilgandi.

«Buxoro axbori»da Turkiya Respublikasining birinchi prezidenti, kamolchilar inqilobining tashkilotchisi va rahbari, yirik davlat arbobi, XX asr buyuk shaxslari qatoridan munosib o'rinni oltagan Mustafo Kamol posho (1881-1938, 1923-1938) shaxsiyati hamda faoliyatiga bog'liq bir qator maqlolalar chop etilgan. Hatto «Ozod Buxoro» gazetasining 11(224)-sonida Mustafo Kamolning qiyofasi aks ettirilgan. Gazeta bilan tanishar ekanmiz, «Inqilobiy turk askarlarining boshlig'i qahramon - Kamol posho», «Mustafo Kamol-Millat Majlisi raisi», «Mustafo Kamol posho- Jumhurrais», «Mustafo Kamol posho va sovet rahbarlari»¹⁴ kabi yirik maqlolalarda bu shaxsning hayot yo'li, siyosiy faoliyati, harbiy qo'mondonlik mahorati, Turkistonga munosabati atroflichcha bayon qilinadi. Bu esa Turkiyadagi

¹² Туркия-Афғонистон-Эрон орасинда бошланган шартномалар муносабатида Шарқ матбуоти //Бухоро ахбори, 131-сон, 1923 йил 5 феврал.

¹³ С.Қосимов. Инқилобий Туркияга ёрдам керак //Бухоро ахбори, 121-сон, 1922 йил 28 декабр.

¹⁴ Ўша газеталар. 106-сон, 1922 йил 29 октябр. 193-сон 1923 йил 24 август.

ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning Buxoro Respublikasi matbuoti orqali batafsil yoritilishi bilan bog‘liq.

«Hozirda, -deyiladi gazetada, - Kamol posho turk xalqi tarafidan e’tirof etilgan boshliq va Turkiya xalqining qimmatli rahbaridur... Shuni ham aytmoq kerakdurkim, asrlar bo‘yicha bir-biriga katta dushmon bo‘lib yashag‘on Rusiya va Turkiya munosabatlari hozirda Kamol posho siyosati soyasinda ijobjiydur». ¹⁵

Bu o‘rinda Rossiya va Turkiyaning XVII-XIX asrlarda o‘zaro dushmanlik kayfiyatidagi munosabatlaridagi asriy qarama-qarshiliklar, hududiy mojarolarni bartaraf qila olgan, o‘z mamlakati manfaati yo‘lida raqib bilan ham til topisha oladigan diplomat, davlat arbobi sifatida Mustafo Kamolga yuqori baho berilganligini idrok qilish qiyin emas.

Gazeta maqolalaridan birida: «Mustafo Kamol posho nasl jihatidan bir mayda hunarmandning bolasi bo‘lib, yoshi 52 tegrasindadir (atrofidadir)»¹⁶, -deb yozilgan ma’lumotni o‘qiyamiz. Aslida bu haqiqatdan yiroqroq bo‘lib, Mustafo Kamol 1881 yil 10 noyabrda Yunonistonning Salonika shahrida tavallud topgan. Otasi Ali Rizo Afandi o‘rmon mahsulotlari savdosi bilan shug‘ullangan, keyinchalik bojxona chinovnigi lavozimida ishlagan. Onasi Zubaydaxonim Fayzulloh Oqa kizi ham badavlat oilaning farzandi bo‘lgan. Mustafo Kamolning asl ismi Mustafo bo‘lib, Kamol degan nomni o‘ta qobiliyatli bo‘lganligi uchun unga 14 yoshida maktabdagagi matematika o‘qituvchisi bergen.¹⁷ Demak, Mustafo Kamol birinchidan, hunarmand oilasida dunyoga kelgan emas, ikkinchidan esa, gazetada ta’kidlanganidek, 1922 yilda 52 yoshda emas, balki 41 yoshda bo‘lgan. Xolbuki, Mustafo Kamol Otaturk vafot etganida, ya’ni 1938 yilda 57 yoshida bo‘lgan¹⁸.

Mustafo Kamol Otaturk jasur va boshlagan ishini oxiriga yetkazadigan shaxs edi. U Turkiya istiqlolini yarim yo‘lda qolishini istamagan, harbiylarga xos qat’iyatlari kishi bo‘lganligi ham manbalarda qayta-qayta ta’kidlangandi. «Biz ortiq qurbanlar bera olmaymiz, imtiyozli muzokaralarning davom etishi bizning milliy sha’nimizga nuqson keltiradur. Turkiya asoratga qaraganda urushni ortiq ko‘radur hamda shuni davom ettirmoq uchun Turkiya so‘nggi qoniga qadar urushga qaror qildi», deb yozilgandi «Mustafo Kamolning bayonoti»da.¹⁹ Bu o‘rinda tokim Lozanna konferensiyasi (Shveysariya, 1923 yil 24 iyul)ga qadar Turkiya mustaqilligini to‘la

¹⁵ Инкилобий турк аскарларининг бошлиғи қаҳрамони Камол пошо //Бухоро ахбори, 106-сон, 1922 йил 29 октябр.

¹⁶ Ўша газета. 106-сон, 1922 йил 29 октябр.

¹⁷ Қаранг. Эргашев Ф. Янги Туркияниг отаси //Жаҳон адабиёти, 8-сон, 1998 йил; Абдурахмон Зоҳидий. Мустафо Камол Отатурк //Фан ва турмуш, 1-сон, 2001 йил.

¹⁸ Мустафо Камол Отатурк узок давом этган жигар хасталиги туфайли 1938 йил 10 ноябр пайшанба куни эрталаб соат 9.05 да Анкарадаги Дулмабогча саройида вафот этган.

¹⁹ Туркия уришишга карор берган. Мустафо Камол пошо баёноти //Бухоро ахбори, 129-сон., 1923 йил 28 январ.

tan olmaslik uchun harakat qilayotgan Angliya, Fransiya vakillariga vatanparvar rahbarning munosib javobining guvohi bo‘lamiz.

Tarix guvohligicha, faqatgina Lozanna konferensiyasida Antanta davlatlari Turkiyaning mustaqilligini tan olib, noteng shartnomalarni bekor qilishga majbur bo‘lishgan edi.

Turkiyaning munosib yo‘lboshchisi va davlat rahbari Mustafo Kamol Otaturk shaxsiyati «Buxoro axbori»da faoliyat olib borgan ijodkor muxbirlarning ham diqqatini tortgan. Gazetaning 1922 yil 19 oktyabridagi 103-sonida Mustafo Kamol poshoni olqishlab «Minglar yasha!» g‘azali bosilgan. Mazkur g‘azalning muallifi X.Olmosh bo‘lib, uning g‘azalidan:

«Ey, fidoiy Kamol posho
Rahbarisan mazlumlarning
Najotkori sharqlilarning

Askaringla minglar yasha-minglar yasha!»²⁰ kabi satrlarni o‘qiyimiz.

«Buxoro axbori» gazetasi Turkiya va Buxoro o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, qardoshlik aloqalari XX asr 20-yillarda rivojlanganligi, aytish mumkinki, yuqori pog‘onaga ko‘tarilganligi haqida ma’lumot beruvchi qimmatli manbalardan biridir. U haqiqatdan ham «Sharq dunyosi va Buxoro Respublikasi» tarixiy tadqiqot muammosini kelajakda hal qilish manbalaridan biri bo‘la oladi. Kamol posho shaxsiyati masalasiga kelsak, ayni uning hayotligida turkiy xalqlar orasidagi hurmat-ehtiromi qanday bo‘lsa, hozirda ham undan balanddir.

Mustafo Kamol boshchiligidagi turk xalqi g‘alabaga erishdi. Sharq dunyosida birinchi bo‘lib Turkiyada respublika tartibi o‘rnatildi. Kamolchilar ta’limoti o‘zini oqladi va haqli suratda 1934 yildan e’tiboran turk xalqi o‘z yo‘lboshchisiga Otaturk (Turklar otasi) unvonini berdi.

XX asr buyuk shaxslari qatoridan Mustafo Kamol nomi mustahkam o‘rin oldi. Mustafo Kamol Otaturk bilan Buxoro Respublikasi vakillari uchrashgan tarixiy sanadan ham yuz yillikning 4-choragi o‘tib bormoqda. Turkiya xalqi Otaturk nomini abadiylashtirish uchun uning jasadi qo‘yilgan poytaxt Anqarada etnografiya muzeyini tashkil qilishgan. Muzeyda Mustafo Kamol Otaturk hayot yo‘li va faoliyati bilan bog‘lik yuzlab asori-atiqalar, buyumlar, kitob va nashrlar, harbiy kiyim, qurol-yarog‘ kabilar qo‘yilgan. Ular orasida buxoroliklar tomonidan Turkiya rahbariga hadya qilingan nishonlar va buyumlar ham bor. Bu esa xalqlarimiz o‘rtasidagi sinovdan o‘tgan mustahkam qavm-qarindoshchilik, oltin singari zanglamas do‘stona aloqalarning umrboqiyligidan dalolatdir.

Respublikamiz istiqlolga erishgan dastlabki kunlarda Mustafo Kamol vasiyatiga sodiq bo‘lgan kamolchilikning 6-bosqichida rivojlanish yo‘lidan

²⁰ X.Olmosh. Минглар яша! //Бухоро ахбори, 103-сон, 1922 йил 19 октябр.

ketayotgan Turkiya va uning marhum prezidenti Turg‘ut Ozal yurtimiz kelajagiga ishonch bilan qaradi va bizni 1991 yil 16 dekabrda rasmiy jihatdan birinchi bo‘lib tan olgan davlat ham Turkiya Respublikasi bo‘ldi.

Turkiya Respublikasi shakllanmagan, «Anqara hukumati» mavjud bo‘lgan yillarda bu yurt mustaqil bo‘lishiga ishonch bilan qaragan Buxoro hukumati ko‘rsatgan qat’iyat va ishonchni salkam bir asrcha vaqt o‘tganidan so‘ng Turkiya ham O‘zbekiston kelajagi oldida mas’ulligini anglashi tabiiy edi.

Hozirda xalqaro munosabatlar ziddiyatli, murakkabliklarga to‘la, xullas, qanday bo‘lishidan qat’iy nazar O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘z o‘rnini, mavqeい va salohiyatiga ega bo‘lgan mamlakatdir.

Turklar yo‘lboshchisi va rahnamosi shaxsi bilan bog‘liq masalaga baho berganda esa O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimovning «Mustafo Kamol Otaturk nafaqat qardosh turk xalqining, balki barcha turkiy xalqlarning buyuk farzandi va iftixoridir», -degan fikrlari ayni haqiqatdir.

2.3. Mavzu yuzasidan interfaol metodlarni tadbiq etish bo‘yicha tavsiyalar

Mazkur mavzuni o‘tishda o‘qituvchi yuqorida keltirilgan qo‘srimcha materiallarni yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quv mashg‘ulotiga joriylantirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tarix fani o‘qituvchisiga “1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusidagi darsni mustahkamlash qismida qo‘yidagi interfaol usullardan foydalanishga tavsiya beriladi.

“Konseptual jadval” dasturi orqali “1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusidagi muammoli voqeliklarning sabab va omillari, uning yechimi, tegishli yakuniy xulosalar asosida amalga oshiriladi. “Venn texnologiyasi” asosidagi qiyoslash uslubi orqali “Turkiya” va “Eron” davlatlariga xos bo‘lgan umumiyl belgililar tahlil etilishi, “T-chizma” usuli bilan M.Kamol hukumati olib borgan siyosatning ijobiy yoki salbiy tomonlari izohlanishi, “Klaster” usuliga “Yevropacha islohotlar” tushunchasini kengroq mulohaza qilinishi, shuningdek, o‘yinli pedagogik texnologiyalar hisoblangan “5 daqiqa”, “Pochta”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Aqliy hujum”, “Qarorlar shajarasi”, “Mo‘jizalar maydoni”, “Zakovat” kabilarni dars jarayonida samarali qo‘llasa o‘quvchilar faolligi yanada oshadi.


Interfaol usullardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar:

O‘quvchilar 4 guruhgga ajratiladi. Har bir guruhgga alohida topshiriqlar beriladi

1-guruh uchun topshiriq: “Konseptual jadval” orqali muammoli voqeliklarning sabab va omillari, uning echimini izohlanishi kerak. Tegishli yakuniy xulosalar esa o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

| Muammoning mazmuni | Sabab va omillari | Muammoning yechimi | Xulosa |
|---|-------------------|-----------------------|--------|
| 1. Qanday omillarga asoslanib, Turkiya davlat sifatida parchalanib ketmadi? | | | |

2-guruuh uchun topshiriq: O‘quvchilarga “Klaster” dasturi orqali o‘rganilayotgan mavzudagi “Yevropacha islohotlar” tayanch tushunchasi bo‘yicha yangi ma’lumotlarni qayd qilish vazifasi beriladi. O‘qituvchi tomonidan mazkur tushunchaning mohiyati xulosalanadi.



3-guruuh uchun topshiriq: o‘quvchilar “T - chizma” orqali o‘rganilayotgan mavzuga tegishli tarixiy shaxslardan biri R. Puankare faoliyatiga oid jihatlarni tahlil etadilar. O‘qituvchi ushbu shaxs faoliyatidagi muhim xususiyatlar bo‘yicha umumiyl tavsiyalarni beradi.

Mustafo Kamol qanday davlat arbobi bo‘lgan?

| | |
|---|---|
| + | - |
| + | - |

4-guruh uchun topshiriq: o‘quvchilar “Venn diagrammasi” orqali Turkiya, Eron, Afg‘oniston mustamlaka-tobelik tizimiga xos umumiyligini belgilarni qiyosiy tahlil qiladilar. Qo‘yilgan masalaning o‘zaro bog‘liqligini xulosalash o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

1)* Turkiya 2)* Eron 3)* Afg‘oniston



Mavzu bo‘yicha xulosalar shundan iboratki, o‘quvchilarga “1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusidan bilim va ko‘nikmalar hosil qilish bilan birga, ularga yangi bilimlar beriladi, ilmiy tushuncha va tasavvurlari kengaytiriladi. Mazkur mavzuni o‘qitish orqali o‘quvchilarni tinchlik va uning qadr-qimmatini teran anglash, har qanday yot unsur va g‘oyalarga qarshi turish, mustaqillik uchun kurash ruhida tarbiyalash nazarda tutiladi. Bugungi avlodda mafkuraviy immunitet, qat’iy iroda va kelajakka ishonch ruhini tarbiyalash maqsadi ko‘zlanganligi ham mavzuning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Ikki jahon urushi oralig‘ida Turkiya tarixini o‘rganish uchun mahalliy matbuot materiallaridan foydalanishning amaliy ahamiyati quyidagicha:

Birinchidan, Turkiya tarixi (1918-1939 yillar)ni o‘rganishga qaratilgan qo‘sishimcha adabiyotlar doirasi keng, ulardan tanqidiy va ijodiy tahlil asosida foydalanish albatta, o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq hisoblanadi.

Ikkinchidan, darsning samaradorligini oshirishda Turkiya iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotiga oid ma’lumotlarni o‘quvchilarga yosh xususiyatlarini hisobga olib, tarixiy izchillikda va tizimli ravishda dars jarayoniga joriy qilish kerak bo‘ladi.

Uchinchidan, “1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusi haqidagi bilimlar bilan bog‘liq jihatlarini qayd etish, o‘quvchilar ongiga singdirish orqali turk-o‘zbek do‘stligi tarixinining ildizlari haqida ularda kengroq tasavvur hosil qilish zarurdir.

To‘rtinchidan, mazkur mavzuni o‘tishda innovasiya, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlari keng, bularni dars jarayoniga olib kirish o‘qituvchidan ijodkorlik va pedagogik mahorat talab qilinadi.

Ikki jahon urushi oralig‘ida Turkiya tarixini o‘rganish uchun mahalliy matbuot materiallaridan foydalanishning muhim jihatlari bo‘yicha qo‘yidagicha taklif va tavsiyalar bildirish o‘rnlidir:

- 1.Ushbu mavzu yuzasidan yaratilgan o‘quv namunaviy dars ishlanmasini ijodkor tarix fani o‘qituvchilarini orasida targ‘ib qilish va bu orqali ularning fikr - mulohazalarini olish;
2. Mazkur mavzu asosida yangi tashkil etilgan Turkiya Respublikasining o‘sha davr tarixiy-geografik xaritasini yaratish orqali istiqbolda masala mohiyatini yanada kengroq o‘rganish;
3. Ikki jahon urushi oralig‘ida Yevropa va Osiyoning boshqa mamlakatlari tarixiga oid o‘kuv namunaviy dars ishlanmalarini yaratib borish;

JAHON TARIXI FANLARI MAVZULARINI TAKRORLASH VA XOTIRANI MUSTAHKAMLASH UCHUN TAVSIYALAR

| DASTUR NOMI | TOPSHIRIQ MAZMUNI | DASTUR NOMI | TOPSHIRIQ MAZMUNI |
|--|---|--|---|
| 1.“X , Y, Z” dasturi | Tarixiy shaxs nomi, atama, hududlar o‘rniga “X , Y, Z” harflari ishlatiladi. | 6.“Men tanigan, hurmatimga sazovor bo‘lgan tarixiy shaxslar. Bular ...” | Mazkur dastur qayd etilgan mavzu doirasida ishlanadi. 3 nafar tarixiy shaxslarning faoliyatiga oid fikrlar bildiriladi hamda mantiqiy bog‘liqlik inobatga olinadi. |
| 2.“Raqamlar adashdi” dasturi | Tarixiy sana, ya’ni yil hisobi joyi o‘zgartirilib beriladi. | 7.“Meni to‘lqinlantirgan va hayajonlantirgan muhim tarixiy voqeliklar. Bular...” | Mazkur dastur qayd etilgan xronologik davr doirasida ishlanadi. 3 ta qayd orqali insoniyat tarixida muhim o‘zgarishlar, ixtiolar, kashfiyotlarning mantiqiy bog‘liqligi bo‘lishi zarur. |
| 3.“Test va yozma ish muhokamasi” dasturi | Test va yozma ishda nechta yil, nechta shaxs, nechta atama ishlatilganligi muhokama qilinadi. | 8.“Shartnoma, bitim, sulh, kongress, anjuman”lar dasturi | Mazkur dastur orqali barcha darsliklar matnida qayd etilgan shartnoma, bitim, sulh, kongress, konvensiya, anjumanlarning o‘tkazilgan vaqt, maqsadi, qayerda va |

| | | | |
|-------------------------|--|--------------------------|--|
| | | | qaysi davlatlar qatnashganligi topiladi. |
| 4.“T-chizma” dasturi | “T” harfi doskaga chiziladi. 2 ta shaxs yoki 2 ta davlatga mos keluvchi ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi hamda ijobiy +, salbiy – belgilari qo‘yib boriladi. | 9.“Poytaxt” dasturi | Bu dastur orqali poytaxtlarda yuz bergan muhim voqeliklar hamda ularning ko‘chishi bilan bog‘liq ma’lumotlar ishlanadi |
| 5.“To‘rt ustun” dasturi | 1)sana, 2)shaxs, 3) atama, 4) hudud ustunlarga yoziladi. Navbatdagi o‘quvchi javob beradi va yana ustunni to‘ldiradi | 10.“Besh yillik” dasturi | Mazkur dasturda belgilangan 5 yilliklar xronologik chegarasida tarixiy voqeliklar qayd etiladi. |

Nazorat savollari

- 1.Birinchi jahon urushi Turkiya uchun qanday oqibatlarga olib keldi?
2. Nima uchun Gresiya Turkiya hududlariga harbiy harakatlar olib bordi?
3. Gresiyaning Turkiya hududlariga nisbatan harbiy harakatlariga qaysi davlatlarda norozilik sodir bo‘ldi?
4. Gresiyaning Turkiya hududlariga nisbatan harbiy harakatlariga BXSR hukumati va rasmiy matbuoti qanday munosabatda bo‘lgan?
5. M.Kamol hukumatining g‘alabasini ta’milagan qanday omillar mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Abdurahmon Zoxidiy. Mustafo Kamol Otaturk //Fan va turmush, 1-son, 2001 yil.
2. Jahon tarixi [Matn]: o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun “Jahon tarixi (1918-1991 yillar)” darsligi /Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. –Toshkent: “Turon-Iqbol”. 2017. -144 bet.

- 3.** Lafasov M. Jahon tarixi: Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –T.: “Turon - Iqbol”, 2016. -400 bet.
- 4.** Ergashev F. Yangi Turkiyaning otasi //Jaxon adabiyoti, 8-son, 1998 yil;

3. "1918-1939 yillarda Yaponiya" mavzusi yuzasidan yangi pedagogik texnologiyalar

3. 1. “1918-1939 yillarda Yaponiya” mavzusining ahamiyati va qisqacha mazmuni
- 3.2. “1918-1939 yillarda Yaponiya” mavzusini o‘rganishga oid qo‘sishimcha materiallar
- 3.3. Mavzuni mustahkamlashda yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish

3. 1. “1918-1939 yillarda Yaponiya” mavzusining ahamiyati va qisqacha mazmuni

Tarixiy ilm va tushunchalarni egallashda ikki jahon urushi oralig‘ida dunyo mamlakatlarida kechgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy jarayonlardan xabardor bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, dunyo ko‘p qutbli bo‘lgan hozirgi davrda tinchlik va xalqaro hamjihatlikning roli oshib borayotganligi isbot talab qilmaydi. 1918-1939 yillarda Yaponiya mavzusini chuqur va mukammal o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Ikkinchidan, XX asrning 20-yillarida BXSR- Yaponiya, 30-yillarda esa O‘zbekiston - Yaponiya o‘rtasidagi madaniy va iqtisodiy (ipakchilik sohasida) aloqalarning yo‘nalishlari hamda tarixiy tajribasidan xulosalar chiqarish ham muhimdir.

Dars jarayonida o‘qituvchi o‘tgan mavzuni mustahkamlash bosqichini yakunlab, darsning yangi mavzu bo‘limida mavzuni umumiy tavsiflaydi (1-reja bayoni orqali) va qo‘srimcha manbalar orqali o‘quvchilarga mavzuni tushuntirish uchun mavjud materiallarni ikki guruhgaga ajratib oladi.

Jahon tarixi fanidan “1918-1939 yillarda Yaponiya” mavzusini atroflicha va keng qamrovli o‘rganish uchun 1917-1930 yillarda Turkistonda chop etilgan davriy matbuot materiallari, mavzuga oid qo‘srimcha boy ma’lumotlar beradi. Avvalo, 1920-1929 yillarda Buxoroda dunyo yuzini ko‘rgan “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari²¹da Yaponianing urushdan keyingi o‘n yilliklaridagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy ahvoliga oid ko‘pgina ma’lumotlar keltirilgan²². Ikkinchidan, «Buxoro axbori» gazetasining 1923 yil sentyabr oyi sonlaridan Yaponiyada ro‘y bergen dahshatli tabiiy ofat, ya’ni zilzila tafsilotlari va BXSR xalqining jabr ko‘rgan yapon xalqiga ma’naviy hamda moddiy yordami bayon qilinadi²³. «Tokio, Iokagama va boshqa shaharlar xarob bo‘ldi. Tokio yonadur. Temir yo‘l, radio, telegraf

²¹ “Бухоро ахбори” газетаси БХСР Марказий Ижроия Кўмитаси матбуот органи бўлиб, 1920 йил 9 сентябрдан 1923 йил октябргача чоп этилган. Газета ўзбек тилида, ислоҳ қилинган араб имлосида, сарғиш рангли ўртacha сифатдаги қоғозда, хафтада 1-2 марта, 1500-2000 нусхада чиқарилган. 1923 йил 16 октябрдан “Озод Бухоро”номида газета нашр қилина бошланган. Бу газета 1930 йил октябр ойигача чиқиб турган.

Газеталарнинг тўлиқ тахламлари бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат архиви (Ўзбекистон МДА) ва Абу Али Сино номидаги Бухоро вилояти марказий кутубхонасида сақланмоқда.

²² Узок шарқда: Японияда (воеалари ҳакида). Бухоро ахбори, 163-сон, 1923 йил 28 апрел; Японияда янги ҳалокат. Озод Бухоро. 4-сон. 1923 йил 25 октябр; Японияда янги ташкилот. Озод Бухоро. 47-сон. 1924 йил 10 феврал; Шўролар ва бошқалар: Япония ён бермоқчидур. Шўро ва Япония музокараларининг бошланиши. Озод Бухоро, 132-сон, 1924 йил 25 август.

²³ Японияда мисли кўрилмаган офат //Бухоро ахбори. 199-сон. 1923 йил 9 сентябр; Япония: 11 шаҳарнинг ҳалок бўлиши. Зарар 50 млрд. сўм олтин //Бухоро ахбори. 200-сон. 1923 йил 12 сентябр; Японияда табиий офат: 1029 марта ер қимирлаш. Халқ ўртасида хаяжон //Бухоро ахбори. 201-сон. 1923 йил 14 сентябр; Япония офатларига ёрдам //Бухоро ахбори. 209-сон. 1923 йил 3 октябр.

buzilg‘on. Poytaxtdagi podsho saroyi, teatr, polisiya binosi, dorilfunun, qurol-yarog‘ zavodi, dori ombori, gazeta idoralari va 20 000 qadar uy yemirildi. Shaharg‘a quruqlik orqali boradurg‘on yo‘l kesildi... Sumigava daryosi teskari qarab oqmoqqa boshladi»-deb yoziladi «Buxoro axbori»ning 1923 yil 9 sentyabrda chop etilgan 199-sonida. Yaponiya zilzilasi va yapon xalqiga Buxoro xalqi tomonidan ko‘rsatilgan yordam bilan bog‘liq ma’lumotlar gazetaning 209-sonida ham «Qisqa xabarlar» rukni ostida bayon qilingan: «23 sentyabr (1923 yil) Zirobod qishloq yacheykasi bilan dehqonlar ittifoqi a’zolarining qo‘shma majlisida Kaydani Oq‘ayev (?)ning Yaponiyadagi falokat (zilzila) to‘g‘risidag‘i ma’ruzasi eshitilg‘ondan so‘ng majlisda ishtirok qilg‘on 70 kishi bir ovozdan Yaponiya mehnatkashlarig‘a yordam bermakni qaror berdilar»²⁴.

Tarix fani o‘qituvchisiga dars mashg‘ulotining yangi mavzuni mustahkamlash qismi uchun bir necha interfaol usullardan foydalanishga tavsiya beriladi.

XX asr boshlarida Yaponiya jahonning yetakchi davlatlariga qaram bo‘lib qolmagan, nisbatan yuqori darajadagi iqtisodiy va harbiy rivojlanishga erishgan Osiyo mintaqasidagi yagona davlat edi.

Birinchi jahon urushining yakunlanishi Yaponiyada qator iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi. Bu muammolar, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatlashuvi, oddiy kishilarning hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Natijada norozilik kuchayib bordi.

1920 yillar o‘rtalariga kelib mamlakatda sanoat to‘ntarishi yuz berdi. 1925 yili sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi 1919 yilgi darajasidan oshib ketdi. Ishlab chiqarishni konsyentrasiyalash jarayoni davom etdi. Monopolistik kapital xalq xo‘jaligining muhim sohalari egallab ola boshladi. Og‘ir sa noatda «Mitsubisi» va «Sumitomo» konsernlari o‘z pozisiyasini mustahkamlab oldi. 1929 – 1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi yapon iqtisodiyotiga katta zarar keltirdi: u tinchlik sharoitida rivojlanishga moslashmagan, hali juda kuchsiz edi. Ish haqining pastligi tufayli ichki bozor juda sust, tashqi bozorda esa yapon mahsulotlari sifatining pastligi tufayli ular raqobatbardosh emasdi. Yaponiya hukumati inqirozdan chiqishning yo‘li sifatida iqtisodni militarizasiyalash va tajovuzkorlikni tanladi. Yaponiya Xitoyni, Uzoq Sharqni, keyin esa butun Osiyoni bosib olishni, Tinch okeani havzasida o‘z hukmronligini o‘rnatishni rejalashtirayotgan edi.

Ichki siyosiy munosabatlar 1920 yillarda yangi siyosiy partiyalarning paydo bo‘lishi hamda saylovchilar soni ni asta-sekin oshirib borgan qator islohotlar bilan xarakterlanadi. 1925 yildan sovet-yapon munosabatlari yo‘lga qo‘yilib, bu iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishida va yapon qo‘shinlarining Shimoliy Saxalindan olib chiqib ketilishida aks etdi. **1920 yillar** oxiriga kelib hukumatda harbiylarning roli

²⁴ Бухоро ахбори. 209-сон. 1923 йил 3 октябр.

kuchaydi va so‘l kuchlar quvg‘in ostiga olindi. Mamlakatda harbiylar, ayniqsa, «Yosh ofiserlar» deb ataluvchi radikal kayfiyatdagi guruhlar ta’siri keskin kuchaydi. Ular ko‘ppartiyali parlament tizimidan voz kechishni, mamlakatda diktatura o‘rnatishni, tashqi siyosiy ekspansiyani kuchaytirishni talab qildilar. Hukumat boshlig‘i **general Giiti Tanaka** ham ular tomonida bo‘ldi va bu 1920-yillar oxiri 1930-yillar boshlarida «Yosh ofiserlar» tomonidan bir qator siyosiy terrorlar amalga oshirilishiga va, hatto, **1932 yil mayda** isyon ko‘tarilishiga olib keldi. Isyon muvaffaqiyat qozonmadni, ammo Yaponiya «Yosh ofiserlar» ta’siri ostida bosqinchilik yo‘lidan jadal ketdi. Yaponiyada shakllangan totalitar tizim o‘ziga xos avtoritar-monarxistik shaklga ega edi. Osiyoda hukmronlik qilish uchun keng miqyosli urush sharoitida bu avtoritar-monarxistik rejim yangi jihatlar kasb etdi. Mamlakatning hukmron doiralari yangi siyosiy va iqtisodiy tizim yaratish siyosatini e’lon qildilar. «**Yangi siyosiy tizim**» deganda, jamiyat ustidan harbiy-davlat byurokratiyasining qattiq siyosiy nazorati tushunilar edi. Shu tariqa, Yaponiyadagi hukmron rejim asta-sekin totalitar xarakter kasb etib bordi: parlament demokratiyasi belgilari bekor qilindi, iqtisod to‘liq davlat nazorati ostiga o‘tdi, yapon millatining buyukligi to‘g‘risidagi g‘oyalar rejimning mafkuraviy tayanchi bo‘lib xizmat qildi, aholining qo‘llab-quvvatlashini ta’mindadi. Yaponiyada shakllangan militaristik totalitar rejim uning tajovuzkor tashqi siyosatini belgilab berdi. Bu siyosat **1931-yili** Xitoyning Manchjuriya provinsiyasining bosib olinishiga va bu yerda yaponlar tomonidan Manchjou-Go qo‘g‘irchoq davlatining tuzilishiga olib keldi. Millatlar Ligasi bu qo‘pol bosqinchilikka keskin qarshi chiqqanligi uchun Yaponiya 1933-yili bu tashkilotdan chiqdi. **1936-yil noyabrda** Yaponiya va Germaniya **antikomintern pakti** deb ataluvchi hujjatni imzoladi va 1937-yili unga Italiya ham qo‘sildi. Shu tariqa «**Berlin – Rim – Tokio**» uchburchagi deb ataluvchi tajovuzkor davlatlar ittifoqi vujudga keldi. 1937-yil yozida yaponlar Xitoyga qarshi keng miqyosdagi urush harakatlarini boshlab yubordi. **1938-yili** general Fumimaro Konoye hukumati mamlakatning vazifasi Sharqiy Osiyoda yangi tartib o‘rnatish ekanligini e’lon qildi.

1938-yil iyul – avgust oylarida SSSRning Uzoq Sharqdagi Hasan ko‘li atrofida sovet-yapon chegara mojarosi keng ko‘lamlı urush harakatlariga aylanib ketdi. Shiddatli janglardan so‘ng yaponlar SSSR hududidan quvib chiqarildi. 1939-yil mayda yaponlar Xalxin-Gol daryosi yonida Mo‘g‘uliston hududiga bostirib kirdi. Sovet qo‘sishlari qo‘shti mo‘g‘ullarga yordamga keldi. 1939-yil sentabrgacha davom etgan urush miqyosi bo‘yicha Hasan ko‘li atrofi dagi janglardan ancha yirik

edi. Bu urush ham yaponlarning mag‘lubiyati bilan tugadi. Shundan so‘ng, **1941-yil 5-aprelda** Yaponiya SSSR bilan neytralitet haqida paktni imzoladi²⁵.

2. “1918-1939 yillarda Yaponiya” mavzusini o‘rganishga oid qo‘shimcha materiallar

Sovet hukumati yillarida oynai-jahon orqali va ko‘chma lentalarda namoyish qilinadigan badiiy va hujjatli filmlar asosan mustabid mafkura manfatlariga xizmat qilar edi. Mintaqamiz halqlariga namoyish qilinadigan kinofilmlarning aksariyati «bosmachilik» harakati va ikkinchi jahon urushi yillaridagi voqealar tafsilotini bayon qilar, film boshida og‘ir ahvol hamda qiyin vaziyatda qolgan sovetlar, uning so‘ngida muvaffaqiyat va g‘alaba nashidasini surardi. Ko‘p hollarda esa tarixiy haqiqat buzib talqin qilinardi. Respublikamiz istiqloli tufayli O‘zbekiston jahonga, jahon O‘zbekistonga yuz burdi. Bir paytlar Buyuk ipak yo‘li orqali o‘zaro mustahkam bog‘langan Sharq mamlakatlari bilan asriy an‘anaviy aloqalarimiz yangidan buloq ko‘zini ochdi. Nafaqat urf-odatlarimizda balki musiqa va ohanglarimizda, kundalik turmush tarzimizda, madaniyatimizni barcha jihatlari hamohanglik mavjud bo‘lgan Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar bilan hamkorligimizning yangi zarhal harflar bilan bitilgan sahifalari ochilmoqda.

Istiqlol yillarida xorijiy mamlakatlarning respublikamiz oynai-jahonida o‘nlab teleseriallar namoyish qilindi. Filmlar orqali biz yer yuzi turli mintaqalarida istiqomat qilayotgan xalqlarning hayoti, iqtisodiyoti, urf-odati, madaniyati, o‘ziga xos psixologik xususiyatlari kabilardan xabardor bo‘lyapmiz. Bugungi kunga qadar namoyish qilingan xorijiy filmlardan birortasi Yaponianing «Oshin» hamda Janubiy Koreyaning «Qish sanatasi» kabi teleseriallaridek hammani qalbidan mustahkam o‘rin ololmagani sir emas.

«Oshin» teleseriallarida Sharq xalqlariga xos irodalilik va o‘ta bosiqlik, odob va axloq, kelajakka umid va ishonch, jur’at va jasorat, samimiylik va mag‘rurlik oilani va muhabbatni muqaddas deb bilish, yosh avlodga o‘z hayotiy tajribasini singdirish kabi fazilatlar uning qahramonlar orqali mohirona talqin etilgan. Bir osham halol luqmani o‘zining peshona teri bilan mehnat qilib topish, kelin va qaynona o‘rtasidagi munosabatlarda kichkina jussasi bilan tog‘ni ko‘tara olishdek bardoshlilik Oshinning oliyjanobligini yanada bezatdi. Teleserialdagи voqealarning asosiy qismi XX asrning birinchi yarmida bo‘lib o‘tadi. «Mo‘jizalar mamlakati», «Motorellalar mamlakati», «Sharqcha ma’naviyat va G‘arbcha moddiyat sivilizasiyasini o‘zida mujassamlashtirgan birdan-bir davlat», «Oltin asr davrida yashayotgan yurt» kabi fazilatlarga ega bo‘lish

²⁵ Жаҳон тарихи [Матн]: ўрта таълим муассасаларининг 10-синфи ва ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими муассасаларининг ўқувчилари учун “Жаҳон тарихи (1918-1991 йиллар)” дарслиги /Ш.Эргашев, Б.Ходжаев, Ж.Абдуллаев. –Тошкент: “Турон-Иқбол”. 2017. -Б. 57-59.

uchun Yaponiya, ya’ni kunchiqar mamlakati o‘z boshidan juda ko‘p og‘ir kunlarni, yillarni kechirdi.

«Oshin» teleserialidagi mamlakat poytaxti Tokio va boshqa bir qator yirik shaharlarda ro‘y bergan dahshatli zilzila tafsilotlari bilan bog‘liq voqealarni ko‘rgandan so‘ng bizda quyidagi bayon qilinajak fikrlarini yozish istagi tug‘ildi. 1923 yil 1 sentyabrda Yaponiya tarixida yuz bergan bu zilzila yapon xalqlari boshiga tushgan birinchi musibat emasdi, albatta. Bir qadar Yaponiyaning yangi davr tarixiga nazar solsak fikrimizni isbotlovchi ko‘plab dalillarga ega bo‘lamiz. 1724-1853 yillarda (130 yil ichida) Yaponiyada 22 marta dahshatli ocharchilik bo‘lgan. Ochlik hukm surgan yillarda bir yillik aholining ko‘payishi 0,01 foizni tashkil etgan ekan. Demak, o‘scha yillarda mamlakat nufuzi keskin kamaygan. Mamlakatning 4 mingga yaqin kattayu kichik orollarida har kuni o‘rtacha 3-4 marta zilzila bo‘lib turgan. Yapon xalqining asosiy iste’moli gurunch hisoblanadi. Hosilsizlik yillari ham o‘tgan tarixiy davrda 50 marta qaytarilgan.

1923 yil kuzi boshidagi zilzila dahshati «Oshin» teleserialida tarixiy haqiqat mezonida talqin qilingan. Zilziladan Yaponiya ko‘rgan moddiy zarar 5,5 mld. iyenni tashkil etgan.

Sevimli ro‘znomamiz «Buxoronomo»ning o‘tmishdoshi bo‘lgan «Buxoro axbori» gazetasining 1923 yil sentyabr sonlarini varaqlar ekanmiz, Yaponiyadagi misli ko‘rilmagan zilzila dahshati tafsilotlaridan guvoh bo‘lamiz. Zilzila tufayli «Tokio, Yakogama va boshqa shaharlar xarob bo‘ldi. Tokio yonadur. Temir yo‘l, radio, telegraf buzilg‘on. Poytaxtdagi podsho saroyi, teatr, polisiya binosi, dorilfunun, quro-yarog‘ zavodi, dori ombori, gazeta idoralari va 20 ming qadar uy yemirildi. Shaharga quruqlik orqali boriladigan yo‘l kesildi... Sumigava daryosi teskari qarab oqmoqqa boshladidi», - deb yoziladi gazetaning 1923 yil 9 sentyabrda chop etilgan 199-sonida. Yaponiyada uylar 1920 yillarga qadar cho‘p qoziqlar ustida mustahkam qilib yog‘och va taxtadan bir qavatli qilib qurilgan. O‘scha paytda endigina 3-4 qavatli uylar qurish rasm bo‘lgan edi. Yer silkinishi shu qadar yuqori ball bo‘lganki, unga bir qvatli uylar ham bardosh bera olmagan. 2 million aholili poytaxt fuqarolari boshpanasiz qolgan.

Kelajakda orzu-umidlar bilan yashayotgan Oshin va Rizo Tanakuraning barcha sa’y-harakatlari bir kunda sarobga aylanadi. Ular mashaqqatlar bilan qurban zavod vayron bo‘ladi. Uy-joylari ham qulab kultepaga aylanadi, sadoqatli Jeremon yong‘inda, tom ostida qolib halok bo‘ladi. Rizo Tanakura, Oshin va ularning o‘g‘li Takeshi ko‘chada boshpanasiz, hech vaqosiz qoladi.

Teleserialda namoyish qilinganidek, Tokioni yong‘in qamrab olgan, «poytaxtda zilzila tufayli kelib chiqqan yong‘in 200 chaqirim uzoqdan ko‘rinadur, harbiylar yong‘in bilan natijasiz kurashadir»-deb yozilgandi «Buxoro axbori»da. Dengiz suvi ko‘tarilib, suv toshqini kelib chiqqanligi ham ayni tarixiy haqiqat. O‘scha paytda Tokio

«lemani» (poroxod va kemalar to‘xtaydigan joy)da 200 ming aholi yashagan. Dengiz toshqinining o‘zi 120 ming kishining hayotiga zomin bo‘lgan.

Filmda tasvirlangan voqealardan biri: Tanakuralar xonadoni dengiz portidan suv yo‘li orqali Sagoyaga jo‘nab ketganligi quruqlik yo‘llari yopilganligidan edi.

Tokio, Yakogama, Osaka-zilzila yuz bergen asosiy shahar va viloyatlar bo‘lib, bu hududlarda aholi zich yashagan. Zilzila oqibatida millionlab yaponlar sarson-sargardorlikda, qashshoqlik va notavonlikda uzoq yillar ko‘chib yashashga majbur bo‘ldilar.

Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, 1923 yil 1-2 sentyabrda Yaponiya hududida 1 ming 29 marta yer qimirlagan. Poytaxtdagi markaziy davlat idoralari Yakogava shahriga ko‘chirilgan. Tartibsizliklar ham kelib chiqib, ba’zan aholi bilan polisiya o‘rtasida to‘qnashuvlar yuz bergen.

Ma’lumki, 1920 yillarda Sovet Rossiyasining Uzoq Sharq hududida Chor Rossiyasi zabitlari bolsheviklarga qarshi kurash olib borgan edi. Jumladan, admirall Kolchak, ataman Semyonov kabilar harbiy harakatlardagi mag‘lubiyatlardan keyin o‘n minglab safdoshlari bilan Xitoy va Yaponiyada 100-150 ming sonli «oq muhojirlar» yashashi bilan bog‘liq ma’lumotlar beriladi. «Yakogamada zilzila bo‘lg‘on vaqtida rus muhojirlaridan ataman Semyonov butun tarafdorlari bilan halok bo‘lgan. Merkulov ham halok bo‘lg‘ondur, deb gumon qilinadur. Yakogamada Rossiya telegraf agenturasi o‘ltirg‘on bino ham vayron bo‘lg‘on» deb yozadi «Buxoro axbori» o‘zining 1923 yil 14 sentyabrdagi 201-sonida.

Yaponiyada ofatdan zarar ko‘rganlarga jahon xalqlari ma’naviy va moddiy darddoshlik ko‘rsatdi. Jumladan, Buxoro xalqi ham bu xayrli, mehr-muruvvati chetda turgan emas. O‘scha davr matbuot organlarini varaqlar ekanmiz fikrimizni isbotlovchi dalillar guvohi bo‘lamiz. Buxoro respublikasida Yaponiya mehnatkashlariga yordam berish uchun «iona to‘lash komissiyasi» tuzildi. Komissiya a’zolari bir yil davomida faol ish olib bordilar. Xabarlardan birida; «23 sentyabr Zirabod qishloq yachykasi bilan dehqonlar ittifoqi a’zolarining qo‘shma majlisida Kaydani Og‘ayev o‘rtoqlarining hozirgi baynalminal ahvol va Yaponiyadagi falokat to‘g‘risidagi ma’ruzalari eshittirilgandan so‘ng majlisda ishtirok qilgan 70 kishi bir og‘izdan Yaponiya mehnatkashlariga yordam bermakni qaror berdilar»-deb yozilgandi. («Buxoro axbori», 1923 yil 30 oktyar 209-son). 1923 yil sentyabr zilzila dahshatini boshidan kechirgan Oshin va Rizo Tanakura kabi katta yoshli aholining asosiy qismi olamdan o‘tgan. Lekin ularning farzandi va nabiralari bugungi kunda Yaponiyani jahon shoh supasidagi karvonboshchilik darajasiga olib chiqdilar. Ajdodlarimiz o‘rtasigi madaniy va iqtisodiy aloqalar, bir-birini qo‘llab-qvvatlay, og‘ir damlarda darddosh bo‘lish bizga azaldan meros bo‘lib qoldi.

Ortda qolgan XX asrda ko‘plab mashaqqatli voqealarni boshidan kechirgan Yaponiya bugungi kunda iqtisodiy qudrati bilan barchani lol qoldirmoqda. Mamlakatda har yili 12 mln dona avtomobil ishlab chiqariladi, 11 mln

tonna baliq ovlanadi. 372,2 ming kv km, 46 prefektura va hokkydo gubernatorligidan iborat hududda 160 mln ga yaqin aholi istiqomat qiladi. Mamlakatning eng yirik orollaridan Hokkaydo, Xonsyu, Kyusyu kabilarning gavanlarida o‘nlab xorijiy mamlakatlarning yuzlab savdo kemalari langar tashlaydi. Mustaqil

O‘zbekiston ham moddiy va madaniy taraqqiyot pillapoyalaridan jadal ko‘tarilib kelayotganligi bizni quvontiradi, kezi kelganda ayrim yo‘nalishlarni taqqoslashni lozim topdik, Yaponiya hududi 372,2 ming kv km bo‘lib, nufuzi 160 millionga yaqin. O‘zbekistonda 447,4 ming kv. km. li maydonda 26 millionli aholi istiqomat qiladi. Yurtimiz yer osti boyliklariga boy, Yaponiyadagi tabiiy boyliklar bizga nisbatan 5 foizni tashkil qiladi. Muhojir vatandoshlarimizdan biri ta’kidlaganidek, mamlakatimizdagи yer usti ne’matlaridan oqilona foydalanilsa, 120 million kishini boqish mumkin ekan.

Yaponiyalik, fitratshunos olim Xisau Kumasu: «Sizda paxta, pilla, tilla, gaz, shirin-sharbat mevalar, qovun, tarvuz bisyor, xalqingiz mehnatsiz turolmaydi, shuning uchun yurtingiz kelajagi porloq», degandi.

Bugungi kunda ekin ekiladigan yerlar Yaponiyada 5,5 million hektar bo‘lsa, O‘zbekistonda 4,7 million hektar atrofida.

Aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarishdagi ko‘rsatkichlar jamiyat a’zolari farovonligining barometri hisoblanadi.

Eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol qilishda o‘zaro farqlarimiz unchalik katta emas. Jumladan, go‘sht iste’moli ikkala mamlakatda ham har bir kishiga 30 kilogramdan to‘g‘ri keladi. Shakar-23,9 kg-21,8 kg; non-127 kg-164 kg; sut-75 kg-180 kg; yog‘-12 kg-12,5 kg; sabzavot-129 kg-124 kg; baliq-34 kg-4,5 kg. Yuqoridagi raqamlarning mahsulot nomidan keyingi birinchisi Yaponiya, ikkinchisi esa, O‘zbekiston uchun tegishlidir. O‘zbekiston Yaponiya bilan iqtisodiy, seysmologik, ilmiy-texnologik sohalarda keng hamkorlikni yo‘lga qo‘yan. Ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik talablar asosida yo‘lga qo‘yish uchun o‘nlab yapon firmalari bilan hamkorlik qilinmoqda. Yapon kinorejissyorlarining «Oshin» singari tarixiy haqiqat ila uyg‘unlashgan teleseriallari esa xalqimiz ma’naviyatini yanada boyitishga xizmat qilishiga shubha yo‘q. «Oshin» teleserialidagi ijobiylar qahramonlar singari mehr-oqibatli va muruvvatli bo‘lish esa bizning azaliy odatimiz ekanligini hech qachon unutmaylik.

Tarix fani o‘qituvchisi mazkur mavzuni o‘tish jarayonida o‘quvchilarga yuqoridagi ma’lumotlarni bayon etib bersa, darsning ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligi yanada oshadi.

3. Mavzuni mustahkamlashda yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish

Mazkur mavzuni o‘tishda o‘qituvchi yuqorida keltirilgan qo‘sishimcha materiallarni yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quv mashg‘ulotiga joriylantirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tarix fani

o‘qituvchisiga “1918-1939 yillarda Yaponiya” mavzusidagi darsni mustahkamlash qismida qo‘yidagi interfaol usullardan foydalanishga tavsiya beriladi.

“Konseptual jadval” dasturi orqali “1918-1939 yillarda Yaponiya” mavzusidagi muammoli voqeliklarning sabab va omillari, uning yechimi, tegishli yakuniy xulosalar asosida amalga oshiriladi. “Venn texnologiyasi” asosidagi qiyoslash uslubi orqali “Yaponiya” va “Xitoy” davlatlariga xos bo‘lgan umumiyl belgilar tahlil etilishi, “T-chizma” usuli bilan Yaponiya hukumati olib borgan siyosatning ijobiy yoki salbiy tomonlari izohlanishi, “Klaster” usuliga “Yevropacha islohotlar” tushunchasini kengroq mulohaza qilinishi, shuningdek, o‘yinli pedagogik texnologiyalar hisoblangan “5 daqiqa”, “Pochta”, “Kichik guruhlarda ishslash”, “Aqliy hujum”, “Qarorlar shajarasi”, “Mo‘jizalar maydoni”, “Zakovat” kabilarni dars jarayonida samarali qo‘llasa o‘quvchilar faolligi yanada oshadi.


Interfaol usullardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar:

O‘quvchilar 4 guruhga ajratiladi. Har bir guruhga alohida topshiriqlar beriladi

1-guruh uchun topshiriq: “Konseptual jadval” orqali muammoli voqeliklarning sabab va omillari, uning echimini izohlanishi kerak. Tegishli yakuniy xulosalar esa o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.


| Muammoning mazmuni | Sabab va omillari | Muammoning yechimi | Xulosa |
|--|-------------------|--------------------|--------|
| 1. Qanday omillarga asoslanib, Yaponiya Osiyo qit’asida mustamlakachi davlatga aylana bordi? | | | |

2-guruh uchun topshiriq: O‘quvchilarga “Klaster” dasturi orqali o‘rganilayotgan mavzudagi “Yevropacha islohotlar” tayanch tushunchasi bo‘yicha yangi ma’lumotlarni qayd qilish vazifasi beriladi. O‘qituvchi tomonidan mazkur tushunchaning mohiyati xulosalanadi.



Yevropacha islohotlar

3-guruh uchun topshiriq: o‘quvchilar “T - chizma” orqali o‘rganilayotgan mavzuga tegishli tarixiy shaxslardan biri Yaponiya hukumati faoliyatiga oid jihatlarni tahlil etadilar. O‘qituvchi ushbu shaxs faoliyatidagi muhim xususiyatlar bo‘yicha umumiy tavsiyalarni beradi.



4-guruh uchun topshiriq: o‘quvchilar “Venn diagrammasi” orqali Yaponiya, Fransiya, Angliya mustamlakachi tizimiga xos umumiy belgilarni qiyosiy tahlil qiladilar. Qo‘yilgan masalaning o‘zaro bog‘liqligini xulosalash o‘qituvchi tomonidan amalgalash oshiriladi.

1)* Yaponiya 2)* Fransiya 3)* Angliya



A)*

B)*

Mavzu bo'yicha xulosalar shundan iboratki, o'quvchilarga "1918-1939 yillarda Yaponiya" mavzusi yuzasidan bilim va ko'nikmalar hosil qilish bilan birga, ularga yangi bilimlar beriladi, ilmiy tushuncha va tasavvurlari kengaytiriladi. Mazkur mavzuni o'qitish orqali o'quvchilarni tinchlik va uning qadr-qimmatini teran anglash, har qanday yot unsur va g'oyalarga qarshi turish, mustaqillik uchun kurash ruhida tarbiyalash nazarda tutiladi. Bugungi avlodda mafkuraviy immunitet, qat'iy iroda va kelajakka ishonch ruhini tarbiyalash maqsadi ko'zlanganligi ham mavzuning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Ikki jahon urushi oralig'ida Yaponiya tarixini o'rganish uchun mahalliy matbuot materiallaridan foydalanishning amaliy ahamiyati quyidagicha:

Birinchidan, Yaponiya tarixi (1918-1939 yillar)ni o'rganishga qaratilgan qo'shimcha adabiyotlar doirasi keng, ulardan tanqidiy va ijodiy tahlil asosida foydalanish albatta, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq hisoblanadi.

Ikkinchidan, darsning samaradorligini oshirishda Yaponiya iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotiga oid ma'lumotlarni o'quvchilarga yosh xususiyatlarini hisobga olib, tarixiy izchillikda va tizimli ravishda dars jarayoniga joriy qilish kerak bo'ladi.

Uchinchidan, "1918-1939 yillarda Yaponiya" mavzusi haqidagi bilimlar bilan bog'liq jihatlarini qayd etish, o'quvchilar ongiga singdirish orqali Yaponiya -o'zbek do'stligi tarixinining ildizlari haqida ularda kengroq tasavvur hosil qilish zarurdir.

To'rtinchidan, mazkur mavzuni o'tishda innovasiya, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari keng, bularni dars jarayoniga olib kirish o'qituvchidan ijodkorlik va pedagogik mahorat talab qilinadi.

Ikki jahon urushi oralig'ida Yaponiya tarixini o'rganish uchun mahalliy matbuot materiallaridan foydalanishning muhim jihatlari bo'yicha qo'yidagicha taklif va tavsiyalar bildirish o'rnlidir:

1.Ushbu mavzu yuzasidan yaratilgan o'quv namunaviy dars ishlanmasini ijodkor tarix fani o'qituvchilari orasida targ'ib qilish va bu orqali ularning fikr - mulohazalarini olish;

2. Mazkur mavzu asosida yangi tashkil etilgan Yaponiyaning o'sha davr tarixiy-geografik xaritasini yaratish orqali istiqbolda masala mohiyatini yanada kengroq o'rganish;

3. Ikki jahon urushi oralig'ida Yevropa va Osiyoning boshqa mamlakatlari tarixiga oid o'quv namunaviy dars ishlanmalarini yaratib borish;

4. Pirovardida, jahon tarixining namunaviy dastur asosida o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida o‘tiladigan mavzularida yaratilgan namunaviy dars ishlanmalarini internet saytiga kiritib, tarix fani o‘qituvchilari foydalanishi uchun imkon yaratish.

5. Mazkur qo‘llanma asosidan kelib chiqib, boshqa davlatlar (Eron, Afg‘oniston va hokazo)ning mazkur davr tarixini o‘rgatishga oid qo‘shimcha ishlanmalarni ham yaratish mumkin. Chunki bu kabi ishlanmalarning bugungi kunda akademik liseylar va kasb-hunar ta’lim muassasalari tarix fani o‘qituvchilari uchun ahamiyatli tomoni shundaki, 2017-2018 o‘quv yilidan boshlab AL va KXK talabalarining “Jahon tarixi” (M.Lafasov muallifligida) darsligi²⁶ tamoyildan chiqarilib, o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun “Jahon tarixi (1918-1991 yillar)” nomli darsligi²⁷ o‘quv jarayoniga joriy etilgach, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limida 80 daqiqaga asoslangan uzlusiz mashg‘ulotni olib borish uchun o‘qituvchi albatta, qo‘shimcha materiallarga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Ushbu qo‘llanmalar esa metodik va pedagogik bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Birinchi jahon urushi Yaponiya uchun qanday natijalar bilan yakunlandi?
2. Yaponiyadagi «Yosh ofi tserlar» isyoni siyosiy rejim va tashqi siyosatda qanday o‘zgarishlarga olib keldi?
3. Yaponiyadagi totalitar rejimning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat edi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahon tarixi [Matn]: o‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun “Jahon tarixi (1918-1991 yillar)” darsligi /Sh.Ergashev, B.Xodjayev, J.Abdullayev. –Toshkent: “Turon-Iqbol”. 2017. -144 bet.
2. Lafasov M. Jahon tarixi: Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –T.: “Turon - Iqbol”, 2016. -400 bet.
3. Raxmonov K. Matbuotda dunyo mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy muammolar talqini. BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI. 2011. № 1. –B.4-7.
- 4.Raxmonov K. J. Tarix fani o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatini oshirishda hamkorlik strategiyalariga asoslangan darslarni tashkil etishning amaliy ahamiyati (“1918-

²⁶ Лафасов М. Жаҳон тарихи: Академик лицейлар ва касб-хунар коллажлари учун дарслик. –Т.: “Турон - Иқбол”, 2016. -400 бет.

²⁷ Жаҳон тарихи [Матн]: ўрта таълим муассасаларининг 10-синфи ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими муассасаларининг ўқувчилари учун “Жаҳон тарихи (1918-1991 йиллар)” дарслиги /Ш.Эргашев, Б.Ходжаев, Ж.Абдуллаев. –Тошкент: “Турон-Иқбол”. 2017. -144 бет.

1939 yillarda Fransiya” mavzusi misolida). FTAI. “BILIG – ILMIY FAOLIYAT” nashri <http://bilig.academiascience.or>. YANVAR. 2021. –B. 54-62.

5.Raxmonov K. Turkistonda matbuot tarixining dolzarb muammolari (1870-1924 yillar). O‘quv qo‘llanma. -Buxoro, 2015y. 116 bet.

6.Raxmonov K., Majidov J. Tarix fanlarini o‘qitishda innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etish. Uslubiy qo‘llanma. Buxoro-2020 yil, 97 bet.

Mundarija

| | |
|--|----|
| Kirish | 3 |
| 1.Tarix ta’limi jarayonining umumiyl tavsifi..... | 5 |
| 1.1. Jahon tarixi fani bo‘yicha innovasiya va interfaol metodlarni tadbiq etishning amaliy ahamiyati, maqsad va vazifalari..... | 5 |
| 1.2.Tarix o‘qitish metodikasi, pedagogik texnologiya va innovasiya tushunchasi..... | 5 |
| 1.3. Jahon tarixi fani mavzularini o‘tishda o‘qituvchining kreativ yondashuviga oid mulohazalar..... | 6 |
| 2. Jahon tarixining "1918-1939 yillarda Turkiya" mavzusi bo‘yicha innovasiyalar va interfaol metodlarni tadbiq etish bo‘yicha tavsiyalar.. | 13 |
| 2.1. “1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusining dolzarbliji va umumiyl tavsifi | 13 |
| 2.2.“1918-1939 yillarda Turkiya” mavzusiga oid qo‘shimcha manbaviy materiallarning amaliy ahamiyati..... | 17 |
| 2.3. Mavzu yuzasidan interfaol metodlarni tadbiq etish bo‘yicha tavsiyalar. | 26 |
| 3. "1918-1939 yillarda Yaponiya" mavzusi yuzasidan yangi pedagogik texnologiyalar..... | 32 |
| 3.1. “1918-1939 yillarda Yaponiya” mavzusining ahamiyati va qisqacha mazmuni..... | 32 |
| 3.2. “1918-1939 yillarda Yaponiya” mavzusini o‘rganishga oid qo‘shimcha materiallar..... | 35 |
| 3.3. Mavzuni mustahkamlashda yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish..... | 39 |
| Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati..... | 43 |